

# Халқ сўзи

Ўзбекистон – келажаги буюк давлат

2020 ЙИЛ – ИЛМ, МАЪРИФАТ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙИЛИ

1991 йил 1 январдан чиқа бошлаган ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2020 йил 13 август, № 170 (7672) Пайшанба

Сайтимизга ўтиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг.


## КАРАНТИН ТАЛАБЛАРИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ЮМШАТИШ ЧОРАЛАРИ БЕЛГИЛАНДИ

**Президент Шавкат Мирзиёев раислигида 12 август куни ҳудудларда саноатни ривожлантириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди.**

Давлатимиз раҳбари йиғилиш аввалида коронавирус пандемияси билан боғлиқ вазиятга тўхталиб ўтди. Жумладан, охирги бир ойда барча ҳудудларда даволаш ўринлари ва нафас бериш аппаратлари сони бир неча баробар кўпайтирилгани, муолажа қилиш усуллари янгилангани ҳамда тез тиббий ёрдам хизмати кучайтирилгани қайд этилди. Буларнинг натижасида мамлакатимиз бўйича коронавирусдан соғайиш кўрсаткичи 59 фоиздан 77 фоизга етди. Вирус юқтирганлар сони 32 мингдан ошган бўлса-да, уларнинг 25 мингдан зиёди соғайган, 7 минг бемор даволанмоқда.

**— Ҳар бир фуқаромиз соғлиғи ва ҳаёти учун курашни янада кучайтирган ҳолда, иқтисодиёт ва ижтимоий соҳаларнинг барқарор ишлашини таъминлаш, аҳолининг яшаш шароитини енгиллаштириш мақсадида карантин талабларини босқичма-босқич юмшатиш зарур. Халқимизнинг ўзи шуни илтимос қилмоқда, — деди Шавкат Мирзиёев.**

Шуни ҳисобга олиб, 15 августдан автотранспорт воситаларининг кун давомида юриши, маҳаллий авиа ва темир йўл қатнови учун рухсат бериш кераклиги айтилди. Санаторийлар, меҳмонхоналар, музейлар, болалар оромгоҳлари, дала ҳовлилар ижараси, гўзаллик салонлари, сартарошхоналар, очиқ ҳавода хизмат кўрсатадиган умумий овқатланиш объектлари фаолияти ҳам тикланади. Белгиланган талабларга амал қилган ҳолда уйда 30 кишилик оилавий маросимлар ўтказиш мумкин бўлади.

17 августдан ҳудудлар ўртасида автотранспорт қатнови, жамоат транспорти (метрополитендан ташқари) ва шаҳар атрофидаги автобуслар қатнови тикланиши белгиланди.

20 августдан буюм ва қурилиш маҳсулотлари бозорлари, йирик савдо дўконлари, спорт заллари, фитнес клуб ва бассейнлар ишлай бошлайди.

Республика махсус комиссиясига ҳар бир фаолият тури бўйича қандай санитария талабларига амал қилиш зарурлигини аниқ белгилаш вазифаси қўйилди. Эпидемиологик вазият яхши бўлган давлатлардан келган шахсларни карантинга олиш ва ундан чиқариш тартибини енгиллаштириш, пневмониядан тузалган аҳолини реабилитация қилиш марказларини ташкил этиш бўйича топшириқ берилди.

Санитария-эпидемиология хизматига коллектив иммунитет шаклланиш жараёнини мониторинг қилиб бориш учун антитаначалар таҳлилини ўтказишни йўлга қўйиш кераклиги таъкидланди.

Телевидение ва радиода маданий-маърифий, кўнгилочар кўрсатув ва эшиттиришларни кўпайтириш, ижтимоий масофани сақлаган ҳолда театр, кино, концерт ва бошқа тадбирларни ташкил этиш масаласига ҳам эътибор қаратилди.

**— Карантин талаблари юмшатилаётган бўлса-да, барчамиз ижтимоий масофани сақлаш, ниқоб тақиш, дезинфекция ва бошқа санитария-гигиена талабларига сўзсиз амал қилишимиз, илгари йўл қўйган хатоларни такрорламаслигимиз керак. Худога шукур, ҳаммамиз ҳам етарли тажриба орттирдик. Кўпни кўрган халқимиз жуда катта матонат ва қаҳрамонлик, тиббий маданиятини намоён қиляпти. Темир интизом, қаттиқ чидам ва сабр-тоқат билан биз албатта бу синовларни тез орада енгиб ўтамиз. Мен бунга қатъий ишонаман, — дея таъкидлади Президент.**

## САНОАТ КЎРСАТКИЧЛАРИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИНДИ

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 12 август куни ҳудудларда саноатни ривожлантириш, рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши ўтказилди.**

Саноат корхоналари иқтисодий барқарорликни таъминлаш, иш ўринларини сақлаб қолиш ва янгиларини яратишда муҳим ўрин тутади. Шу боис пандемияга қарамасдан мамлакатимизда бундай корхоналарнинг узлуксиз ишлаши учун шароитлар яратиб берилди.

Бунинг натижасида йилнинг биринчи ярмида “Ўзэлтехсаноат”, “Ўзавтосаноат”, тўқимачилик, чарм-пойабзал, металлургия, электр энергияси тармоқларида ўсишга эришилган. Қўрғонтепа, Қумқўрғон, Ромитан, Музработ, Избоскан, Норин ва Янгибозор туманларида саноат ишлаб чиқариш ҳажми бир неча баробар кўпайган.

Лекин, умумий ҳисобда олганда, биринчи ярим йилликда саноат маҳсулоти ҳажми 167 триллион сўмни ташкил этиб, ўтган йилдагига нисбатан 1,9 фоизга камайган.

Таҳлилларга кўра, қолган олти ойда 229 триллион сўмлик саноат маҳсулоти ишлаб чиқариб, йил якунигача бу борадаги кўрсаткични 3,5 фоизга ошириш учун барча имкониятлар бор. Бунинг учун ҳозирги мураккаб ва фавқулодда ҳолатдан келиб чиқиб, саноат сиёсати, иш услуби ва ёндашувларни ўзгартириш, рақобатбардош товарлар “занжири”ни ташкил этиш зарур.

Видеоселектор йиғилишида шу борадаги долзарб масалалар муҳокама қилинди. Энг аввало, ҳудудлар ва тармоқлар яқин ҳамкорликда ишлаши муҳимлиги таъкидланди.

Мисол учун, Қорақалпоғистонда иккинчи ярим йилликда 7,8 триллион сўмлик саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш режалаштирилган. 5 та йирик лойиҳани фойдаланишга топшириш мўлжалланган. Тўқимачилик, кимё тармоқларидаги бу лойиҳалар ҳисобидан 500 та янги иш ўрни ташкил этилади. Худди шундай, Тошкент шаҳри ва вилоятларда ҳам катта режалар белгиланган.

Давлатимиз раҳбари уларга бирма-бир тўхталиб, саноат корхоналарида ишлаб чиқариш марраларини кафолатли таъминлаш ва инвестиция лойиҳаларини якунлаш бўйича кўрсатмалар берди.

Тармоқ ва ҳудудларнинг ўзаро ҳамкорлигига масъул ишчи гуруҳ тузиб, ҳудудларга чиққан ҳолда, корхоналарнинг муаммоларини ҳал қилиш ва қўшимча захираларни сафарбар этиш орқали саноат ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш зарурлиги таъкидланди.

Президентимиз саноат кластерларини йўлга қўйиш масаласига алоҳида аҳамият қаратди.

Мисол учун, Наманганда тўқимачилик ва у билан боғлиқ тармоқлар, Навоий вилоятида қурилиш ва безак материаллари, Тошкент вилоятида фармацевтика, Тошкент шаҳрида электроника ва мебель бўйича саноат кластерларини ташкил этиш учун тадбиркорлик муҳити шаклланган. Лекин, шу билан бирга, рақобатдош маҳсулот чиқариш учун кластерда илм, инновация, лойиҳа, молия, инжиниринг ва инвестиция ташкилотлари бўлиши керак.

Бош вазир ўринбосарига ушбу тизимни йўлга қўйиш, ҳар бир ҳудудда саноат кластерларини ташкил этиш вазифаси юклатилди.

Пандемия оқибатида 11 мингта саноат корхонасининг даромади тиклангани йўқ. Уларнинг асосий қисми тўқимачилик, озиқ-овқат, мебелсозлик, металл буюмлар, қурилиш материаллари корхоналаридир.

Шу боис тўлиқ қувватда ишламаётган корхоналарни жонлантириш, уларга бориб, хомашёси, айланма маблағи, маҳсулот бозори билан боғлиқ масалаларга кўмаклашиш бўйича топшириқлар берилди. Ҳокимлар саноат билан шахсан шуғулланиши кераклиги таъкидланди.

Иқтисодиёт тармоқларини электр энергияси ва табиий газ билан барқарор таъминлаш, барча лойиҳаларни ўз вақтида ишга тушириш бўйича кўрсатмалар берилди.

Саноат кооперацияси ва маҳаллийлаштириш масалалари атрофлича муҳокама этилди. Режадаги 133 та лойиҳа ишга тушмагани, яна 261 таси тўлиқ қувватга етмагани, оқибатда 1,1 триллион сўмлик маҳсулот ишлаб чиқарилмай қолгани кўрсатиб ўтилди. Бу борадаги камчиликлар вилоятлар кесимида таҳлил қилиниб, уларни ҳал этиш чоралари белгиланди.

Пандемия даврида маҳсулотни намойиш қилиш имконияти чеклангани боис Электрон кооперация порталидан кенг фойдаланиш муҳимлиги таъкидланди.

Мамлакатимизда ишлаб чиқарилаётган барча товарларни ушбу кооперация порталига жойлаштириш, унинг мақоми ва савдо ҳажмларини кескин кўтариш бўйича топшириқ берилди.

**— Одамларнинг даромадини ошириш, янги иш ўринлари яратиш, инвестициялар жалб қилиш саноат ривожи билан чамбарчас боғлиқ. Шунинг учун саноат масалалари бундан буён ҳам доимий эътиборимиз марказида бўлади, — деди Президент.**

Йиғилишда Бош вазир ўринбосарлари, саноат тармоқлари раҳбарлари ва ҳокимлар ахборот берди.

**ЎзА.**

## «ЁШЛАР 2020: ГЛОБАЛ МИҚЁСДАГИ БИРДАМЛИК, БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТ ВА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ» МАВЗУСИДАГИ ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ БЎЙИЧА САМАРҚАНД ФОРУМИ ИШТИРОКЧИЛАРИГА

Ҳурматли форум қатнашчилари!

Қадрли ёшлар!

Барчангизни — “Ёшлар 2020: глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор тараққиёт ва инсон ҳуқуқлари” мавзусида ўтказилаётган инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми қатнашчиларини қутлаш менга улкан мамнуният бағишлайди. Сиз, азизларни Халқаро ёшлар куни билан чин қалбимдан самимий муборакбод этаман.

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош котиби Антониу Гутерришга мазкур форумни ўтказиш тўғрисидаги ташаббусимизни қўллаб-қувватлагани учун чуқур миннатдорлик билдираман.

Халқаро анжуман ишида иштирок этаётган Бирлашган Миллатлар Ташкилоти, ЮНЕСКО, Халқаро меҳнат ташкилоти, Миграция бўйича халқаро ташкилот, Парламентлараро Иттифоқ, Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти, Шанхай ҳамкорлик ташкилоти, Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги, Ислом ҳамкорлик ташкилоти вакиллари ва бошқа шерикларимизга ташаккур изҳор этаман.

Азиз дўстлар!

Маълумки, келажакка интилиб яшайдиган ёш авлод сайёрамизда фаровон ҳаёт ва юксак тараққиёт барқарор бўлиши учун янги ғоялар ва ижодий руҳдаги саъй-ҳаракатларни амалга оширадиган беқиёс кучдир.

БМТнинг Ёшлар стратегиясида таъкидланганидек, “ёшлар сиймосида энг қимматли ва ўта муҳим ресурслар мужассам топган бўлиб, унга ҳар қанча инвестиция киритса арзийди, чунки бу сармоялар бир неча баробар зиёда бўлиб қайтади”. Мен ғоят муҳим ушбу фикрга тўлиқ қўшиламан.

Шу йилнинг бошидан буён COVID-19 пандемияси билан боғлиқ вазият глобал ҳаёт кун тартибидаги марказий масала бўлиб келмоқда. Янги коронавируснинг тарқалиши бутун дунёда жиддий иқтисодий ва ижтимоий оқибатларга олиб келди. Аҳоли, биринчи галда ёшлар ана шу таҳдидларга жавобан давлатлар ҳамда халқаро ҳамжамият томонидан кенг кўламли чора-тадбирлар кўрилишини талаб этадиган кўплаб муаммоларга тўқнаш келди.

Бундай шароитда ёшларнинг овозига қулоқ тутиш жуда муҳимдир. Уларнинг долзарб эҳтиёжларини таъминлаш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган миллий, минтақавий ва глобал стратегия ва дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда бевосита иштирок этишлари учун ёшларга имконият яратиб бериш зарур.

Бугунги мураккаб вазиятда ёш авлод вакиллари замонавий таҳдидларга, жумладан, пандемияга қарши ўзларининг истиқболли ташаббуслари ва ижтимоий лойиҳалари билан муносиб жавоб бераётгани эътиборга сазовордир. Бутун жаҳонда кўнгилли ёшлар ёрдамга муҳтож аҳоли қатламларини қўллаб-қувватлашда, янги иқтисодий ва гуманитар дастурларни илгари суришда фаол иштирок этмоқда.

Ҳурматли форум иштирокчилари!

Ҳозирги замонда интеллектуал ва маънавий етук, ташаббускор ёшлар барқарор тараққиётнинг драйверига айланмоқда. Бугунги кунда янги Ўзбекистон ёшлари — мамлакатни модернизация қилишга қаратилган жадал ва кенг кўламли ислоҳотларнинг ҳаракатлантирувчи кучи ва фаол иштирокчиси бўлиб майдонга чиқмоқда.

Аҳолисининг ярмидан зиёдини ёшлар ташкил этадиган Ўзбекистонда уларнинг ҳуқуқ ва эркинликлари, қонуний манфаатларини таъминлаш давлат сиёсатининг устувор йўналиши этиб белгиланган.

Фақат кейинги йилларнинг ўзида ёш авлодни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва уйғун ривожлантиришга, ҳар бир навқирон инсон жамиятда муносиб ўрин эгаллашига қаратилган бир қатор қонунлар, Президентнинг Фармон ва қарорлари, ҳукумат қарорлари қабул қилинди.

Олий Мажлис палаталари ҳузурида Ёшлар парламентлари тузилди, Ёшлар ишлари агентлиги ва Ёшлар масалалари бўйича идоралараро кенгаш ташкил этилди.

Ҳозирги вақтда “Ўзбекистон ёшлари — 2025” концепцияси ишлаб чиқилмоқда, ёшлар билан ишлаш самарадорлигини баҳолашнинг ягона мезонлари, ёшлар сиёсатини баҳолашнинг миллий индекси жорий этилмоқда.

Бугунги кунда инсоният дуч келаётган кўплаб муаммолар — тинчлик ва хавфсизликка таҳдидлар, терроризм ва экстремизм, ирқчилик, иқлим ўзгаришлари, шунингдек, COVID-19 пандемияси — ўзаро келишилган глобал ҳамкорликни ва мавжуд муаммоларни ҳал этиш жараёнларига ёшларни фаол жалб қилишни талаб этмоқда.

Шу муносабат билан БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида Ўзбекистон томонидан илгари сурилган Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциянинг қабул қилиниши жаҳондаги икки миллиарддан ортиқ йигит ва қизларнинг ҳақ-ҳуқуқларини таъминлашда муҳим аҳамиятга эгадир. У ёш авлодни маърифий руҳда тарбиялаш, ижтимоий қўллаб-қувватлаш, уларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш, ўз салоҳиятини рўёбга чиқариши учун шарт-шароит яратишдек эзгу мақсадларга хизмат қилади. Ушбу ташаббус халқаро жамоатчилик томонидан кенг қўллаб-қувватланмоқда.

Бугунги форум иштирокчилари ҳам ана шу ташаббусни қўллаб-қувватлайдилар, ҳужжат лойиҳасини ўз амалий таклифлари билан бойитадилар, деб ишонаман.

Қадрли ёшлар!

Бугун ўз ишини бошлаётган Самарқанд ёшлар форуми глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор ривожланиш ва инсон ҳуқуқларини, тинчлик ва тараққиётни таъминлаш йўлида навқирон авлод томонидан қўйилган муҳим амалий қадам ва қимматли ҳисса бўлади, деб умид қиламан.

Форумнинг барча иштирокчиларига фаолиятлари самарали бўлишини тилайман.

**Шавкат МИРЗИЁЕВ,**
**Ўзбекистон Республикаси Президенти**

## САМАРҚАНД ЁШЛАР ФОРУМИ

**Глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор ривожланиш ва инсон ҳуқуқларини, тинчлик ва тараққиётни таъминлаш йўлида навқирон авлод томонидан қўйилган муҳим амалий қадам.**

*Кеча Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд халқаро веб-форуми ўз ишини бошлади. Унинг очилиши БМТ томонидан Халқаро ёшлар куни деб эълон қилинган муҳим санага тўғри келганида ҳам ўзига хос рамзий маъно бор.*




“Ёшлар — 2020: глобал бирдамлик, барқарор тараққиёт ва инсон ҳуқуқлари” мавзуидаги халқаро анжуман айнан ёшлар ҳуқуқларини тарғиб қилишнинг долзарб масалаларига бағишланган. Шу билан бирга, коронавирус пандемияси туфайли Самарқанд форуми илк бор ёшларга мос замонавий ахборот технологияларини қўллаган ҳолда, онлайн тарзда ўтказиляпти.

Тадбир ташкилотчилари Ўзбекистон Ҳукумати номидан — Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази ҳамда Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги, БМТнинг Ўзбекистондаги жамоаси, Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти ҳамда Фридрих Эберт номидаги жамғарма ҳисобланади.

Форум ишида БМТ, ЕХҲТ, Европа Кенгаши, Ислом ҳамкорлик ташкилоти, ШҲТ, МДҲ, Африка Иттифоқи тизимидаги ёшлар тузилмалари раҳбарлари, дипломатик корпус вакиллари, инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро, минтақавий ва миллий институтлар, жаҳон ёшлар ташкилотлари ҳамда фуқаролик жамияти институтлари вакиллари, олимлар ва экспертлар қатнашмоқда.

➡ 4

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
ҚАРОРИ

## КАМБАҒАЛ ВА ИШСИЗ ФУҚАРОЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЖАЛБ ҚИЛИШ, УЛАРНИНГ МЕҲНАТ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ВА КАСБ-ҲУНАРГА ЎҚИТИШГА ҚАРАТИЛГАН ҲАМДА АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШГА ОИД ҚЎШИМЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА

Мамлакатимизда меҳнат бозорининг самарали механизмларини жорий қилиш, аҳолининг ишчанлик фаоллигини ошириш, камбағал ва ишсиз фуқароларни замонавий касб-ҳунар ва тадбиркорлик кўникмаларига ўқитиш, шу асосда уларни доимий даромад келтирадиган меҳнат ва тадбиркорлик фаолиятига жалб қилиш орқали бандлигини таъминлаш мақсадида:

1. Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги (кейинги ўринларда — Вазирлик) тегишлилиги бўйича Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари билан биргаликда:

**2021 йил 1 январга қадар Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятларда “Ишга марҳамат” мономарказларини** 1-иловага мувофиқ;

**бир ой муддатда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги тизимидаги касб-ҳунарга ўқитиш марказларини** 2-иловага мувофиқ;

**(Давоми 2-бетда).**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
ҚАРОРИ

## ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Буюк мутафаккир аждодимиз, мотуридийлик таълимоти асосчиси имом Абу Мансур Мотуридий ва унинг издошлари меросини чуқур ўрганиш, уларнинг ақида ва калом илми ривожига қўшган бебаҳо ҳиссасини тадқиқ этиш ва кенг тарғиб қилиш, миллий-диний қадриятларимизни асраб-авайлаш ва ривожлантириш, шу асосда ёш авлодни эзгу умуминсоний ғоялар руҳида тарбиялаш, уларда маънавий ва маърифий қарашларимизга ёт бўлган зарарли таъсирларга қарши мафкуравий иммунитетни кучайтириш мақсадида:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Дин ишлари бўйича қўмита (кейинги ўринларда — Дин ишлари бўйича қўмита), Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази ва Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот марказининг Ўзбекистон халқаро ислом академияси ҳузурида давлат муассасаси шаклидаги **Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказини** (кейинги ўринларда — Марказ) ташкил этиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

**(Давоми 2-бетда).**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг
ҚАРОРИ

## КИМЁ ВА БИОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШЛАРИДА УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ВА ИЛМ-ФАН НАТИЖАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

Мамлакатимизда кимё ва биология фанларини ривожлантириш, ушбу йўналишларда таълим сифати ва илм-фан натижадорлигини ошириш “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиёт йили” Давлат дастурининг устувор вазифалари қаторида белгиланган.

Зеро, ўғил-қизларимизни кимё ва биология фанлари бўйича чуқур ўқитиш ҳудудларда янги-янги ишлаб чиқариш корхоналарини барпо этиш, юқори қўшилган қиймат яратадиган фармацевтика, нефть, газ, кимё, тоғ-кон, озиқ-овқат саноати тармоқларини жадал ривожлантиришга туртки беради ҳамда пировардида халқимиз турмуш шароити ва даромадларини оширишга пухта замин ҳозирлайди.

Шу билан бирга, умумтаълим мактабларидаги кимё ва биология фанларини ўқитиш сифати бугунги давр талабларига жавоб бермаслигини, ўқитиш методологияси ва лабораториялар маънан эскирганлигини, ўқитувчиларнинг меҳнатини муносиб рағбатлантириш механизмлари жорий қилинмаганлигини алоҳида қайд этиш зарур.

**(Давоми 3-бетда).**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг

ҚАРОРИ

# ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

(Давоми. Бошланиши 1-бетда).

2. Марказнинг **асосий вазифалари** этиб қуйидагилар белгилансин:

ақида ва калом илми ривожига беқиёс ҳисса қўшган Имом Мотуридий ва унинг издошлари бўлган алломаларнинг улкан илмий, диний-маънавий меросини чуқур ўрганиш, улар яратган асарларнинг илмий-изоҳли таржима ва қиёсий матнларини нашр этиш, халқ ва жаҳон жамоатчилиги ўртасида кенг тарғиб қилиш, ушбу мавзуларга доир илмий тадқиқотларни тизимли ташкил этиш;

ислом динининг инсонпарварлик моҳияти, маърифий-маданий роли ва ривожланиш йўналишларини илмий асосда ўрганиш ва кенг афкор оммага, жумладан, халқаро жамоатчиликка етказиш;

Имом Мотуридий, Абу Муин Насафий каби алломаларнинг калом илми ривожига қўшган ҳиссаси ва унинг тараққиётида тутган ўрнини чуқур тадқиқ этиш, ёш авлодни миллатлараро ва динлараро бағрикенглик, ўзаро ҳурмат, тинчлик-тотувлик каби ислом динининг асл қадриятлари руҳида тарбиялаш;

мамлакатда ҳамда хорижий давлатларнинг кутубхоналари ва архив фондларида сақланаётган буюк алломаларнинг калом илмига оид мероси ҳамда ислом дунёси учун муҳим илмий аҳамиятга эга бўлган қўлёзма, тошбосма асарларнинг асл ҳамда электрон нусхаларини тўплаш ва келажак авлодга етказиш учун тизимли илмий тадқиқотларни ташкил этиш;

исломий илмлар, хусусан, калом илми тарихи ва унинг бугунги кундаги аҳамиятини илмий тадқиқ этиш соҳасидаги халқаро ҳамкорликни кучайтириш мақсадида илмий-назарий ва услубий масалаларга бағишланган анжуман, конференция, симпозиум, кўргазма, илмий маъруза, семинар-тренинг ва танловлар ҳамда бошқа маданий-маърифий тадбирларни ташкил этиш;

тадқиқот натижалари юзасидан қомуслар, каталоглар, альбомлар, илмий-оммабоп ҳужжатли фильмлар, ахборот-ресурс базасини тайёрлаш ва оммавий ахборот воситалари, хусусан, Интернет жаҳон ахборот тармоғида эълон қилишни ташкил қилиш;

ислом тарихи ва калом илми йўналишидаги янги тадқиқотлар натижаларидан илмий жамоатчиликни кенг хабардор этиш;

“жаҳолатга қарши маърифат” ғояси асосида ислом динининг илм-маърифат, маънавий поклик, тинчлик-осойишталик, тараққиёт ва бунёдкорликка чақирувчи ғояларини халққа, айниқса, ёшларга етказиш, мутаассиблик, экстремизмнинг мақсадлари, ғоявий негизлари, замонавий кўринишлари ва фаолият услубларини ўрганиш ҳамда уларга қарши курашишнинг илмий-маърифий асосларини ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш учун тавсия этиш.

3. Қуйидагилар:

Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказининг фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва мувофиқлаштириш бўйича **васийлик кенгашининг** таркиби 1-иловага мувофиқ;

2020 — 2024 йилларда Имом Мотуридий ва мотуридийлик таълимотини ўрганишни қўллаб-қувватлаш бўйича “**Йўл харитаси**” 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

4. Белгилаб қўйилсинки:

Марказ директори Дин ишлари бўйича қўмита билан келишилган ҳолда, Ўзбекистон халқаро ислом академияси ректори томонидан лавозимга тайинланади ва лавозимидан озод этилади;

Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказининг фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва мувофиқлаштириш бўйича васийлик кенгаши Марказ фаолиятини мувофиқлаштиради, унга юкланган вазифаларни амалга оширишда кўмаклашади ҳамда фаолиятининг асосий йўналишларини белгилайди.

5. Марказ фаолиятини **молиялаштириш манбалари** этиб қуйидагилар белгилансин:

Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари;

жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳомийлик хайриялари;

қонун ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар.

6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси **икки ой муддатда**:

Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот марказининг тузилмаси ва уставини тасдиқласин;

Марказ учун зарур моддий-техник база ва инфратузилмани барпо этиш бўйича тегишли чораларни кўрсин;

Марказга юқори малакали мутахассисларни жалб этиш бўйича ташкилий ишларни амалга оширсин.

7. Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Дин ишлари бўйича қўмитанинг хорижий тадқиқотчи ва изланувчилар учун **Имом Мотуридий номидаги халқаро стипендияни** таъсис этиш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

Белгилансинки:

халқаро стипендияга номзодлар Имом Мотуридий ва мотуридийлик таълимоти билан боғлиқ изланишларни амалга оширувчи хорижий тадқиқотчи ва изланувчилар орасидан саралаб олинади;

халқаро стипендия совриндорларининг Ўзбекистондаги илмий изланишлари халқаро ва хорижий ташкилотларнинг грантлари ҳисобига молиялаштирилади.

8. Ўзбекистон халқаро ислом академияси ректорига:

хорижлик малакали мутахассисларни илмий тадқиқотчи сифатида жалб этиб, уларга меҳнат бозорининг амалдаги конъюнктурасини ҳисобга олган ҳолда иш ҳақи ва бошқа тўловларни белгилаш;

Марказ илмий тадқиқотчилари ва мутахассисларининг хорижий таълим ва илмий-тадқиқот муассасаларида малака ошириши ва стажировка ўташи қиймати ҳамда шу билан боғлиқ харажатлар учун тўловларни амалга ошириш ҳуқуқи берилсин.

9. Ўзбекистон халқаро ислом академияси Марказ ва Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги билан биргаликда **Таълим, фан ва маданият масалалари бўйича Ислом олами ташкилотига** (**ICESCO**) аъзо мамлакатлар ва бошқа давлатларнинг махсус муассасалари, университетлари ўртасида самарали халқаро ҳамкорликни ўрнатиш ва ривожлантириш бўйича аниқ чораларни кўриб борсин.

10. Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлиги **икки ой муддатда**:

Марказда ноёб қўлёзма асарларни ўрганиш бўйича илмий тадқиқот ишларига давлат буюртмаси белгиланган тартибда шакллантирилишини;

илмий фаолиятга оид давлат дастурлари доирасида бажариладиган мақсадли илмий лойиҳаларга Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети маблағлари ҳисобидан Марказга маблағлар ажратилишини таъминласин.

11. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги қошидаги мутахассисларни хорижда тайёрлаш ва ватандошлар билан мулоқот қилиш бўйича “Эл-юрт умиди” жамғармаси мунтазам равишда Марказнинг асослантирилган таклифлари асосида илмий ходим ва тадқиқотчиларнинг хорижда амалиёт ўташи ва стажировкасини ташкил этиш ҳамда хорижлик илмий ходим ва тадқиқотчиларни Марказга жалб қилиш чораларини кўриб борсин.

12. Марказ илмий ходимлари ва мутахассисларига Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 16 апрелдаги “Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5416-сон Фармонининг 11-банди амал қилиниши татбиқ этилсин.

13. Дин ишлари бўйича қўмита **икки ой муддатда** қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

14. Ушбу қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Президенти маслаҳатчиси Р. С. Қосимов ва Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ижтимоий ривожлантириш масалалари бўйича ўринбосари Б. А. Мусаев зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент шаҳри,
2020 йил 11 август

Ўзбекистон Республикаси Президентининг

ҚАРОРИ

# КАМБАҒАЛ ВА ИШСИЗ ФУҚАРОЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЖАЛБ ҚИЛИШ, УЛАРНИНГ МЕҲНАТ ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ВА КАСБ-ҲУНАРГА ЎҚИТИШГА ҚАРАТИЛГАН ҲАМДА АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШГА ОИД ҚЎШИМЧА ЧОРА-ТАДБИРЛАР ТЎҒРИСИДА

(Давоми. Бошланиши 1-бетда).

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан биргаликда **бир ой муддатда Тошкент шаҳри туманларида қисқа муддатли касб-ҳунарга ўқитиш курсларини** 3-иловага мувофиқ;

Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги билан биргаликда **икки ой муддатда маҳалла аҳолисини касб-ҳунарга ўқитиш масканларини** 4-иловага мувофиқ ташкил этсин.

2. Вазирлик доимий равишда **нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларини жалб қилиб**, аҳолини меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касблар, тадбиркорлик асослари ва хорижий тилларга ўқитишни ташкил этсин. Бунда, **хусусий сектор имкониятларидан кенг фойдаланиш мақсадида**:

а) нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларини ташкил этаётган хусусий инвесторларга қуйидагилар **давлат ёрдами** сифатида кўрсатилади:

нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларини ташкил этиш учун Вазирликнинг “Ишга марҳамат” мономарказлари ва касб-ҳунарга ўқитиш марказларининг, касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларининг бинолари ёки уларнинг бир қисми ҳамда маҳаллий ҳокимият ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тавсиясига кўра бошқа бўш турган бинолар ёки уларнинг бир қисми **оператив бошқарувга ёки узоқ муддатли имтиёзли ижарага берилади**;

ўқув дастури ва ўқитувчиларни **мустақил танлаш ҳуқуқи берилади**;

касб-ҳунарга ўқитиш марказлари бинолари бир қисми берилган тақдирда мазкур марказларнинг ўқув жиҳозлари ва анжомлари **имтиёзли равишда фойдаланишга топширилади**;

нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларида Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси ҳисобидан ўқитиш учун **давлат буюртмасининг кафолатланган энг кам даражасини белгилаш**;

б) нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасалари олинаётган давлат ёрдами эвазига **қуйидагиларни таъминлайди**:

касб-ҳунарга ўқитиш ва кўникмаларни баҳолаш сифатининг ташқи ва миллий меҳнат бозори талабларига мослигини;

ишсиз, камбағал фуқароларни касб-ҳунарга ўқитиш харажатларини Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси ҳисобидан тўланаётган давлат буюртмасининг миқдоридан оширмасликни;

касбий кўникмалари баҳоланаётган фуқаролар тўғрисида маълумотларни Вазирликнинг Тасдиқланган малакага эга шахслар Миллий реестрига қўшиш учун тақдим этишни;

в) нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларида таълим олган ҳамда WorldSkills ва бошқа халқаро стандартлар даражасида касбий малака сертификатини (Skills паспорти) олган битирувчиларга Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан қуйидаги имтиёзлар берилади:

касб-ҳунарга ўқиш ва малака имтиҳонини топшириш харажатларини қоплаш;

тадбиркорликка жалб этиш ва ўзини ўзи банд қилганлик учун рағбатлантириш субсидияларини ажратиш;

ўз бизнесини бошлаши учун имтиёзли кредит ажратишга йўлланма бериш.

3. Қуйидагилар:

**Камбағал ва ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўргатиш ва уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш бўйича республика ишчи гуруҳи таркиби** 5-иловага мувофиқ;

**Аҳоли бандлигини таъминлаш ва ишчи кучининг рақобатбардошлигини ошириш дастури** 6-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

4. Белгилансинки, мазкур қарорнинг 1 ва 2-бандларига мувофиқ **ўқитиш харажатлари қуйидаги манбалар ҳисобидан қопланади**:

меҳнат органлари йўлланмаси билан юборилган ишсиз фуқароларни ўқитиш билан боғлиқ харажатлар Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари;

бошқа фуқаролар учун — фуқароларнинг ўз маблағлари ёки ўз ишчиларини касбий малакасини ошириш учун (касбий ўқитиш, қайта ўқитишга) юборган иш берувчилар ёки янги ишчиларни касбга тайёрлаш учун буюртма берган ташкилотлар маблағлари ва қонун ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар.

5. Молия вазирлиги бир ой муддатда ушбу қарорга 1-иловага мувофиқ “Ишга марҳамат” мономарказларини ва 2-иловага мувофиқ касб-ҳунарга ўқитиш марказларини сақлаш, қайта таъмирлаш, асбоб-ускуна ва жиҳозлар билан таъминлаш ҳамда ўқитувчи ва ишлаб чиқариш таълим усталарининг иш ҳақларини тўлаш учун Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармасига Инқирозга қарши курашиш жамғармасидан 2020 йил учун ажратиладиган маблағларга қўшимча равишда **150 миллиард сўм** маблағ ажратсин.

6. Вазирлик 2021 йил 1 январдан бошлаб “Ишга марҳамат” мономарказлари ҳамда касб-ҳунарга ўқитиш марказлари битирувчиларининг касбий малакасини WorldSkills стандартлари асосида баҳолаш, шунингдек, баҳолашдан муваффақиятли ўтган битирувчиларга мамлакатимизда ва хорижий давлатларда тан олинадиган **Skills паспорти берилишини йўлга қўйсин ва касбий малакаси тасдиқланган битирувчиларнинг Ягона реестрини шакллантирсин**.

“Ишга марҳамат” мономарказлари ҳамда касб-ҳунарга ўқитиш марказлари томонидан битирувчиларга берилган **ўқишни тамомлаганликни тасдиқловчи ҳужжат** ҳамда **Skills паспорти ўрта махсус, касб-ҳунар таълими дипломи даражасига тенглаштирилиб**, эгаллаган билимларни меҳнат фаолиятида амалга ошириш ҳуқуқини беради, бироқ, таълимнинг кейинги турини давом эттириш учун асос ҳисобланмаслиги белгилансин.

7. Белгилансинки, “Ишга марҳамат” мономарказлари ҳамда касб-ҳунарга ўқитиш марказлари:

фаолият йўналишлари Вазирлик томонидан белгиланади, уларнинг фаолияти билан боғлиқ харажатлар, шу жумладан, моддий-техник таъминлаш ва сақлаб туриш харажатлари Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари, хўжалик фаолияти натижасида тушган маблағлар ва қонун ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан молиялаштирилади;

таркибий тузилмаси, штатлар жадвали, раҳбар, ўқитувчи ва бошқа барча ходимларининг меҳнатига ҳақ тўлаш миқдори Вазирлик томонидан тасдиқланади;

ўқув-методик фаолияти Вазирлик ҳамда Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги томонидан белгиланган тартибда мувофиқлаштирилади;

ўқув жараёнида ишлаб чиқарилган яримтайёр, тайёр маҳсулотларни (товар, иш, хизматларни) ушбу марказлар ҳудудида жойлашган кўргазмали павильонлар ва ярмаркалар ҳамда электрон тижорат орқали **намойиш қилиши ва сотиши** (тушган тушумларни ўқув жараёни учун зарур бўлган эҳтиёт қисмлари ва хом ашё материалларини харид қилиш, ходимлар малакасини ошириш ва уларни рағбатлантириш учун сарфлашга йўналтириш шарти билан) мумкин.

8. Вазирлик Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Молия вазирлиги ҳамда тегишли вазирлик ва идоралар билан биргаликда **2020 йил 1 октябрга қадар** Вазирлар Маҳкамасининг қуйидагиларни назарда тутувчи қарори лойиҳасини ишлаб чиқсин ва киритсин:

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда **ҳар бир ҳудудда камида биттадан “Энг яхши касбга тайёрлаш дастури” бўйича нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасалари ўртасида очиқ танлов ўтказиш**;

танлов ғолиби сифатида таълим фаолиятини амалга ошириш ҳуқуқига эга бўлган, ҳудудларнинг, асосан, қишлоқ ва чекка жойлари, чегара ҳудудларини қамраб олган ҳолда ишсиз ва банд бўлмаган аҳоли, айниқса, камбағал фуқаролар, ёшлар ва хотин-қизларни касб-ҳунарга, чет тиллари ёки тадбиркорлик кўникмаларига ўқитишни зиммасига олган, ўқув дастури ва қўлланмаларига эга, ўқиш жараёнида ахборот-коммуникация воситаларидан ва инновацион ўқитиш услубларидан кенг фойдаланадиган нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасасини аниқлаш.

9. Молия вазирлиги бир ой муддатда “Энг яхши касбга тайёрлаш дастури” **танлови ғолибларининг лойиҳаларини молиялаштириш учун** Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармасига Инқирозга қарши курашиш жамғармасидан 2020 йил учун ажратиладиган маблағларга қўшимча равишда **50 миллиард сўм маблағ ажратсин**.

Вазирлик танлов ғолиби аниқлангандан кейин уч кун муддатда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларига танлов ғолиблари тўғрисидаги маълумотни тақдим этсин.

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари танлов ғолибларини, зарур ҳолларда, ўн беш кун муддатда ижара тўловлари бевосита танлов ғолиби томонидан тўланиши шарти билан уларни мақбул шарт-шароитларга эга бинолар билан таъминлаш чораларини кўриб борсин.

10. Вазирлик Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда **2020 йилда аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари, айниқса, ногиронлиги бўлган шахсларнинг иш билан бандлигини таъминлаш мақсадида тажриба тариқасида**:

ногиронлиги бўлган шахслар учун иш ўринлари яратаётган тадбиркорлик субъектларига Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан тижорат банклари орқали **ҳар бир яратилаётган иш ўрни учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 25 баравариагача, бироқ жами ҳар бир тадбиркорлик субъекти учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 500 бараваридан ошмаган миқдорда** 3 йил муддатга, бир йиллик имтиёзли давр билан Марказий банкнинг асосий ставкасида, яратилган иш ўрнида ногиронлиги бўлган шахсларнинг камида бир йил ишлаши шарти билан **микрокредитлар ажратиш тартиби жорий этилишини**;

**ишга лаёқатли ногиронлиги бўлган шахсларнинг электрон реестрини шакллантириш** ва реестрга киритилган шахсларни бўш иш ўринларига жойлаштиришга кўмаклашишни;

тадбиркорлик субъектларига иш ўринлари ва шароитларини ногиронлиги бўлган шахсларга мослаштириш учун Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан **ҳар бир мослаштирилаётган иш жойи учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 40 баравариагача миқдорда субсидия ажратилишини**;

Вазирлик тизимидаги касб-ҳунарга ўқитиш марказларида ижтимоий ҳимояга муҳтож, айниқса, кам таъминланган ва меҳнат мигрантлари оилаларининг аъзолари, ногиронлиги бўлган шахсларни **бепул ўқитиш курсларининг** ташкил этилишини таъминласин.

Вазирлик Соғлиқни сақлаш вазирлиги билан биргаликда 2021 йил 1 февралга қадар ушбу бандда белгиланган тажриба доирасида амалга оширилган ишлар мониторингини олиб борсин ҳамда тажрибанинг ижобий якунлари бўйича уни кейинчалик доимий асосда жорий этиш юзасидан асослантирилган таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

11. Солиқ ва Божхона кодексларига асосан Корея Республикаси Ҳукуматининг грантлари доирасида амалга оширилаётган лойиҳалар, шу жумладан, **Фарғона ва Хоразм вилоятларида ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини касб-ҳунарга ўқитиш марказларини** ташкил этиш учун четдан олиб келинадиган **товарлар, шу жумладан, автотранспорт воситалари, ишлар (хизматлар) божхона тўловларидан** (божхона расмийлаштируви учун йиғимлардан ташқари) озод қилинганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

12. Қуйидагиларга:

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812-сон Фармонига мувофиқ касбга ўқитиш марказларини ташкил этиш учун Вазирлик тизимига берилган касб-ҳунар коллежларидаги хорижий грант ва кредитлар ҳисобига сотиб олинган жиҳоз ва ускуналардан ушбу касбга ўқитиш марказларида ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини касб-ҳунарга ўқитиш мақсадларида фойдаланиш;

ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини, шунингдек, ташкиллаштирилган меҳнат миграцияси йўли билан хорижий мамлакатларда ишлаш учун кетаётган ва “labor-migration” дастурий мажмуасида рўйхатга олинган фуқароларни тадбиркорлик кўникмалари, хорижий тиллар ва касб-ҳунарга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш учун кетишдан олдин давлат ёки нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларига, ишлаб чиқаришнинг ўзида ўқитиш учун ташкилот ҳамда “Уста — шогирд” мактабларига Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан **ҳар бир таълим олувчи учун бир ойда базавий ҳисоблаш миқдорининг 4 бараваридан ортиқ бўлмаган миқдорда грантлар ажратиш**;

ҳудудий меҳнат органлари томонидан рўйхатга олинган ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини Бандликка кўмаклашиш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан тадбиркорлик кўникмалари ва хорижий тилларга ўқитиш, касб-ҳунарга тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини оширишни давлат ёки нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларида, бевосита ишлаб чиқаришнинг ўзида ўқитиш учун ташкилот ҳамда “Уста — шогирд” мактаблари билан тўғридан-тўғри шартномалар тузиш асосида амалга оширишни назарда тутувчи таклифларга розилик берилсин.

13. Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг маслаҳатчиси — Хорижда вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва халқаро иқтисодий ҳамкорлик масалалари департаменти бошлиғи Вазирлик ҳамда Ташқи ишлар вазирлиги билан биргаликда:

уч ой муддатда Ўзбекистон Республикаси фуқаролари кўпчиликни ташкил этган **Россия Федерациясининг Москва, Санкт-Петербург, Қозон, Екатеринбург, Новосибирск шаҳарларида ва бошқа ҳудудларида давлат ҳамда нодавлат таълим муассасалари ва марказлари билан** музокаралар олиб бориб, мазкур ҳудудларда меҳнат фаолиятини олиб бораётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини касб-ҳунарга ва рус тилига, айниқса, кечки пайт (иш вақтидан кейин) ўқитишни ташкил этиш, шу жумладан, ўқитиш учун жой, ўқув қўлланмаси ва ўқув қуроллари билан таъминлаш бўйича **ўзаро келишувларга эришиш чораларини кўрсин**;

икки ой муддатда Россия халқлар дўстлиги университети (РУДН), “Молодые профессионалы (WorldSkills Russia)” иттифоқи ҳамда бошқа таълим ва касбий малакани баҳолаш муассасалари билан **Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг Россия Федерациясида касб-ҳунарга ва рус тилига ўқитилишини ташкил этишда ҳамкорлик ўрнатиш чораларини кўрсин**;

бир ой муддатда хорижда меҳнат фаолиятини олиб бораётган Ўзбекистон Республикаси фуқароларини ҳуқуқий, ижтимоий ва маданий-гуманитар қўллаб-қувватлаш, уларнинг меҳнат фаолияти учун қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича таклифларни ишлаб чиқсин ва Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

Белгилаб қўйилсинки, **Ўзбекистон Республикаси фуқароларини Россия Федерациясида касб-ҳунарга ва рус тилига ўқитиш харажатлари** Вазирлик ҳузуридаги **Хорижда меҳнат фаолиятини амалга оширувчи фуқароларни қўллаб-қувватлаш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш жамғармаси маблағлари ҳисобидан қопланади**.

14. Камбағал ва ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўргатиш ва уларнинг бандлигини таъминлашнинг самарали тизимини жорий этиш мақсадида **мазкур қарор қуйидаги тартибда ижро этилсин:**

а) **Камбағал ва ишсиз фуқароларни касб-ҳунарга ўргатиш ва уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш бўйича республика ишчи гуруҳи раҳбари Ж. А. Кўчқоров** мазкур қарорга мувофиқ давлат ва нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларининг самарали фаолият юритишини ҳамда сифатли ва халқаро стандартларга жавоб берадиган касб-ҳунарга ўқитиш тизими жорий этилишини ташкиллаштирсин, шунингдек, ушбу мақсадда ажратилаётган маблағларнинг манзилли сарфланишини таъминласин;

б) **бандлик ва меҳнат муносабатлари вазири Н. Б. Ҳусанов:**

ишсиз ва банд бўлмаган аҳолини меҳнат бозорининг жорий ҳамда истиқболдаги эҳтиёжлари асосида қисқа муддатларда замонавий касбий кўникмаларга ўқитишнинг самарали дастурларини ишлаб чиқсин;

аҳолининг ижтимоий эҳтиёжманд тоифалари, айниқса, ногиронлиги бўлган шахсларни касб-ҳунарга тайёрлашда ва уларнинг бандлигини таъминлашда хусусий сектор вакиллари билан узвий ҳамкорлик қилсин ва уларни моддий қўллаб-қувватласин, шу жумладан, грантлар ажратиб борсин;

Адлия вазирлиги, оммавий ахборот воситалари ҳамда бошқа масъул вазирлик ва идоралар билан биргаликда **бир ҳафта муддатда** мазкур қарорнинг мазмун-моҳиятини ижрочиларга, ташкилотларга, фуқаролик жамияти институтларига ва аҳоли эътиборига етказиш мақсадида **чора-тадбирлар дастурини тасдиқласин**;

мазкур қарорга асосан ажратилаётган маблағлар бўйича уларнинг сарфланиш йўналишлари, самарадорлик натижалари юзасидан маълумотларни ҳар чорак якуни бўйича жамоатчиликка эълон қилсин ва ўзининг расмий веб-сайтида жойлаштириб борсин;

ушбу қарорнинг **ижроси ҳолати тўғрисидаги ҳисоботларни ҳар чорак якуни бўйича** Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ва Вазирлар Маҳкамасига киритиб борсин **ҳамда оммавий ахборот воситаларида эълон қилиб борсин**;

Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан биргаликда ўқитиш жараёнларига юқори малакали ўқитувчи ва ишлаб чиқариш таълим усталари жалб этилишини таъминласин, зарур ҳолларда уларнинг малакасини WorldSkills ва бошқа халқаро стандартларга асосан ошириб борсин;

в) **Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари** бир ой муддатда ҳар бир туман ва шаҳар кесимида камбағал ва ишсиз фуқароларни, айниқса, моддий ёрдам ва кўмакка муҳтож оилаларнинг рўйхатларига (“темир дафтар”) киритилган оилаларни касб-ҳунарга ўргатиш ва уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш бўйича ҳудудий дастурларни тасдиқласин ва ижросини Вазирлик билан биргаликда таъминласин;

г) **Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг маслаҳатчиси — Хорижда вақтинчалик меҳнат фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва халқаро иқтисодий ҳамкорлик масалалари департаменти бошлиғи** давлат ва нодавлат касб-ҳунарга ўқитиш муассасаларининг хорижда ишлаш нияти бўлган битирувчиларини ишга жойлаштиришга кўмаклашсин ҳамда мазкур муассасаларнинг хорижий давлатлардаги салоҳиятли иш берувчилар билан узвий ҳамкорлигини ўрнатсин;

д) Ҳисоб палатаси ва Молия вазирлиги мазкур қарорга мувофиқ **амалга оширилаётган харажатлар самарадорлиги ҳамда қонунийлигини** ўрнатилган тартибда **текшириб борсин**.

15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим ҳужжатларига 7-иловага мувофиқ ўзгартиришлар ва қўшимча киритилсин.

16. Вазирлик манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

17. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А. Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент шаҳри,
2020 йил 11 август

## Ўзбекистон Республикаси Президентининг ҚАРОРИ

# КИМЁ ВА БИОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШЛАРИДА УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ВА ИЛМ-ФАН НАТИЖАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ ТЎҒРИСИДА

(Давоми. Бошланиши 1-бетда).

Шунингдек, ўрта махсус, профессионал, олий таълим, илмий-тадқиқот муассасалари ҳамда соҳадаги ишлаб чиқариш корхоналари ўртасида кадрлар тайёрлаш ва илм-фан натижаларидан фойдаланиш борасида узвий боғлиқлик, самарали мулоқот ва ҳамкорлик йўлга қўйилмаган.

Кимё ва биология фанлари бўйича таълим сифатини тубдан ошириш, умумтаълим мактабларида ушбу фанларни ўқитишнинг мутлақо янги тизимини жорий этиш, таълим муассасаларини замонавий лабораториялар, дарсликлар ва бошқа ўқув жиҳозлари билан таъминлаш, ушбу йўналишларга малакали ўқитувчи-мураббийларни жалб этиш, кадрлар тайёрлаш ва илм-фан натижаларидан фойдаланишда таълим, илм-фан ва ишлаб чиқариш соҳалари ўртасида ўзаро яқин мулоқот ва ҳамкорликни йўлга қўйиш мақсадида:

1. Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик), Инновацион ривожланиш вазирлиги, Фанлар академияси, Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, кимё, фармацевтика, нефть ва газ саноати корхоналари, кимё ва биология фанлари бўйича узоқ йиллик тажрибага эга устоз-мураббийлар, ўқитувчи ва илмий ходимларнинг қуйидаги таклифларига розилик берилсин:

республиканинг ҳар бир ҳудудида босқичма-босқич **кимё ва биология фанларига ихтисослаштирилган 14 та таянч ихтисослаштирилган мактаблар** (кейинги ўринларда — таянч ихтисослаштирилган мактаблар)ни ташкил этиш, бунда Абу Али ибн Сино номидаги ёш биологлар ва кимёгарлар ихтисослаштирилган мактаб-интернатини ушбу мактаблар мақомига мослаштириш;

республика туман (шаҳар)ларида босқичма-босқич кимё ва биология фанларини чуқурлаштириб ўқитишга **ихтисослаштирилган 150 та мактаблар** (кейинги ўринларда — ихтисослаштирилган мактаблар)ни ташкил этиш;

таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактабларда кимё ва биология фанларини самарали ўқитишни мувофиқлаштириш учун уларга **олий таълим муассасаларининг 55 та кафедраларини бириктириш**;

ишлаб чиқариш тармоқлари учун ўрта бўғин кадрлар тайёрлаш тизимини самарали йўлга қўйиш юзасидан кимё ва биология йўналишларига тегишли мутахассисликлар бўйича ўрта бўғин кадрларини тайёрлайдиган **47** та профессионал таълим муассасаларига ишлаб чиқариш корхоналарини бириктириш;

олий таълим муассасаларида кимё ва биология йўналишларида самарали ўқув жараёнини ташкил этиш, фанларни ривожлантириш учун уларнинг **74** та кафедраларига **11** та **Фанлар академияси илмий-тадқиқот институтлари** ҳамда **ишлаб чиқариш тармоқларини** бириктириш.

2. **Ташкил этиладиган таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактабларга олий таълим муассасаларининг кафедралари, илмий-тадқиқот муассасалари ва ишлаб чиқариш тармоқларини бириктириш рўйхати** 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

**Таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактабларнинг фаолиятини йўлга қўйиш бўйича комиссия** (Б. А. Мусаев) 2-иловага мувофиқ таркибда ташкил этилсин ва унга **2020 йил 1 декабрга қадар**:

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда умумтаълим мактабларининг салоҳияти, ўқувчиларнинг кимё ва биология фанларига бўлган қизиқиши ва ота-оналарнинг талабларини ўрганган ҳолда, улар негизида таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактаблар фаолиятини йўлга қўйиш;

таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактабларнинг моддий-техника базасини мустаҳкамлаш, уларни юқори малакали педагог кадрлар билан таъминлаш, малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш бўйича манзилли дастурни Вазирлар Маҳкамасига тасдиқлаш учун киритиш вазифаси юклансин.

3. Қуйидагилар:

**Кимё ва биология йўналишларига тегишли мутахассисликлар бўйича ўрта бўғин кадрларини тайёрлайдиган профессионал таълим муассасаларига ишлаб чиқариш тармоқларини бириктириш рўйхати** 3-иловага мувофиқ;

**Олий таълим муассасалари кафедраларига Фанлар академияси илмий-тадқиқот институтлари ва ишлаб чиқариш тармоқларини бириктириш рўйхати** 4-иловага мувофиқ;

**2020 — 2025 йилларда кимё ва биология йўналишида узлуксиз таълим сифатини ҳамда амалга оширилаётган илмий-тадқиқотлар ва инновация ишлари натижадорлигини ошириш бўйича мақсадли дастур** (кейинги ўринларда — Мақсадли дастур) 5-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

4. Белгилансинки:

**олий таълим муассасалари кафедралари** — бириктирилган таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактабларда ўқув жараёнини самарали ташкил этиш, профессор-ўқитувчиларни ва иқтидорли талабаларни таълим жараёнига жалб этиш, маҳорат дарслари, тўгараклар ва ёзги мактаблар ташкил этиш;

**хўжалик бирлашмалари, ишлаб чиқариш корхоналари ва кластерлар** — бириктирилган кимё ва биология йўналишларига тегишли мутахассисликлар бўйича ўрта бўғин кадрларини тайёрлайдиган профессионал таълим муассасаларида ўқувчиларнинг назарий билимларини амалиётда мустаҳкамлаш, "Устоз — шогирд" анъаналарини ривожлантириш ва ўқувчиларга касбий таълим беришга кўмаклашиш;

**Фанлар академияси илмий-тадқиқот институтлари ҳамда хўжалик бирлашмалари, ишлаб чиқариш корхоналари ва кластерлар** — бириктирилган олий таълим муассасаларида кимё ва биология йўналишларида самарали ўқув жараёнини таъминлаш, илм-фан ва ишлаб чиқариш интеграциясига эришиш, соҳа етук мутахассислари раҳбарлигида дипломолди амалиётларни ўташ, талаба ва профессор-ўқитувчиларни лабораториялардан фойдаланиш ва ишлаб чиқариш жараёнлари билан яқиндан танишиш учун шароит яратиш, магистрлик ва докторлик диссертацияларини ҳимоя қилишда амалий раҳбарликни амалга ошириш, илмий иш натижаларини амалиётга татбиқ этишга кўмаклашиш ва илмий ишланмаларни тижоратлаштириш борасида ҳамкорлиги йўлга қўйилади.

Бунда бириктирилаётган ташкилотлар таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактаблар, олий ва профессионал таълим, илмий-тадқиқот муассасаларини дарсликлар, лаборатория жиҳозлари ва ускуналар билан таъминлаш, ўқитувчилар малакасини ошириш ва стажировка ўташини ташкил этиш, уларнинг меҳнатини рағбатлантириш, хорижий мутахассисларни жалб этиш, ўқувчиларни халқаро нуфузли олимпиадаларда қатнашиш ва бошқа харажатларини қоплашда яқиндан кўмаклашади.

Давлат активларини бошқариш агентлиги Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда бириктирилаётган хўжалик бирлашмаларининг кузатув кенгашларида бириктирилган таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактаблар, олий ва профессионал таълим, илмий-тадқиқот муассасалари фаолиятини янада ривожлантиришга кўмаклашиш масалалари кўриб чиқилишини таъминласин.

Давлат активларини бошқариш агентлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларига бириктирилаётган хўжалик бирлашмалари томонидан ажратиладиган маблағларнинг миқдорларига ҳудуддаги таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактаблар ҳамда йиллар кесимида ўзгартиришлар киритиш ҳуқуқи берилсин.

5. Кимё ва биология фанларига ихтисослаштирилган мактаблар фаолиятини қўшимча молиялаштириш, уларни жиҳозлаш, ўқитувчиларга устама ҳақ тўлаш ҳамда кимё ва биология фанларини ўқитиш бўйича бошқа тадбирларни молиялаштириш учун Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари ҳузурида юридик шахс мақомига эга бўлмаган **махсус жамғармалар** ташкил этилсин.

Қуйидагилар махсус жамғармаларнинг маблағларини шакллантириш манбалари ҳисобланади:

Давлат бюджети маблағлари;

ҳар бир ҳудуд учун **камида 1 миллиард сўм** (жами **14 миллиард сўм**) миқдоридаги маҳаллий бюджет маблағлари;

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларининг қўшимча манбалари ва бюджетдан ташқари маблағлари;

жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳомийлик хайриялари;

қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар.

6. Халқ таълими вазирлиги:

а) 2020/2021 ўқув йилида умумий ўрта таълим муассасаларида кимё ва биология фанларига қизиқиши бўлган ўқувчилар учун тажриба-синов сифатида жорий этилаётган **табиий фанлар йўналишидаги вариатив (ўзгарувчан) ўқув режаларини** босқичма-босқич ўқув жараёнида фойдаланишни йўлга қўйсин, шунингдек, ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини шакллантириш мақсадида табиий фанлар ўқув дастурларида **амалий машғулотларнинг улушини кўпайтириш** чораларини кўрсин;

б) Агентлик, Молия вазирлиги ва манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **бир ой муддатда** ихтисослаштирилган мактабларнинг кимё ва биология фанлари ўқитувчиларининг билими ва педагогик маҳоратини баҳолаш ва саралаб олинган номзодларнинг малакасини ошириш режасини тасдиқласин.

Белгилансинки, ўтказилган баҳолаш натижаларидан келиб чиқиб ихтисослаштирилган мактабларга ва таянч ихтисослаштирилган мактабларга қабул қилинган кимё ва биология фанлари ўқитувчилари ҳамда раҳбар кадрлари (директор ва ихтисослашган фан бўйича директор ўринбосари)нинг базавий тариф ставкасига нисбатан амалда белгиланган устама ҳақи миқдори **2021 йил 1 январдан** бошлаб 50 фоизгача оширилсин.

Агентлик, Молия вазирлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда **икки ой муддатда** ихтисослаштирилган мактаблар ва таянч ихтисослаштирилган мактабларга қабул қилинган кимё ва биология фанлари ўқитувчилари ҳамда раҳбар кадрлари (директор ва ихтисослаштирилган фан бўйича директор ўринбосари)нинг базавий тариф ставкасига нисбатан устама ҳақ тўлаш тартибини ишлаб чиқсин ва ўрнатилган тартибда тасдиқласин.

7. Давлат тест маркази Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Халқ таълими вазирлиги, Фанлар академияси ва "Ўзстандарт" агентлиги билан биргаликда 2021 йил 1 февралга қадар **Кимё ва биология фанларидан билимларни баҳолаш бўйича миллий сертификатлаш тизимини** (кейинги ўринларда — Миллий сертификатлаш тизими) жорий қилсин.

Миллий сертификатлаш тизими доирасида қуйидагилар белгилансин:

кимё ёки биология фанларини билиш даражасини аниқлаш ва бу тўғрисида миллий малака сертификатларини (кейинги ўринларда — миллий сертификат) бериш белгиланган тартибда **Давлат тест маркази томонидан амалга оширилади**;

кимё ёки биология фанларини билиш даражасини аниқлаш **табақалаштирилган ҳолда амалга оширилади**;

имтиёз бериладиган даражадаги миллий сертификатга эга умумтаълим мактаб, академик лицей ва касб-ҳунар мактаби ўқувчилари давлат олий таълим муассасасига ўқишга киришда **кимё ёки биология фанидан тест синови топширишдан озод этилади** ҳамда унга тегишлилигига кўра кимё ёки биология фани учун белгиланган максимал балл берилади.

8. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Халқ таълими вазирлиги 2020 йил 1 декабрга қадар кимё ва биология фанлари **ўқитувчиларини тайёрлаш дастурларини** хорижий университетлар тажрибаси асосида таҳлил қилиб, такомиллаштириш чораларини кўрсин ва уларда, шу жумладан, қуйидагиларни назарда тутсин:

ўқув жараёнида замонавий педагогик технологияларни жорий этиш;

хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорликда қўшма таълим дастурларини амалга ошириш, стажировкаларни ташкил этиш ва хорижий мутахассисларни жалб этиш;

ўқитувчилар фаолиятини баҳолашнинг илғор мезонларини жорий этиш.

9. Инновацион ривожланиш вазирлиги Халқ таълими вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Фанлар академияси билан биргаликда 2021 йилдан бошлаб илғор хорижий тажриба асосида таълим муассасалари учун кимё ва биология фанларидан ўқув ва илмий адабиётларни яратиш бўйича миллий танлов ташкил қилсин.

Белгилансинки, миллий танлов натижаси бўйича ғолиб деб топилган муаллифлар Инновацион ривожланиш ва новаторлик ғояларини қўллаб-қувватлаш жамғармаси маблағлари ҳисобидан **100 миллион сўмдан** бир марталик мукофот пуллари билан тақдирланадилар.

10. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги ҳамда Фанлар академиясининг 2021 йилдан бошлаб **ҳар икки йилда бир маротаба** олий таълим муассасалари талабалари орасида **кимё ва биология фанлари бўйича Абу Райҳон Беруний номидаги халқаро фан олимпиадаларини** (кейинги ўринларда — халқаро олимпиадалар) ўтказиш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

Белгилансинки, халқаро олимпиадалар ғолибларини **бир марталик мукофотлаш** ҳамда тегишли мутахассисликлар бўйича олий таълим муассасалари **магистратурасига давлат гранти асосида** имтиҳонсиз ўқишга қабул қилиш тизими жорий этилади.

11. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Фанлар академияси, Халқ таълими вазирлиги ва Молия вазирлигининг:

олий таълим муассасаларининг кимё ва биология таълим йўналишлари талабалари ўртасида ўтказиладиган республика фан олимпиадаси ғолиблари ҳамда кимё ва биология фанлари бўйича нуфузли халқаро олимпиадалар совриндорларини магистратурага тегишли мутахассисликлар бўйича ўқишга ажратилган квота доирасида **давлат грантлари** асосида имтиҳонсиз қабул қилиш;

2021/2022 ўқув йилидан бошлаб кимё ва биология йўналишларида кадрлар тайёрлаётган барча олий таълим муассасалари умумтаълим мактаблари битирувчи синфлари ўқувчилари ўртасида кўп босқичли (туман (шаҳар) — вилоят — олий таълим муассасаси) кимё ва биология фани бўйича ўзининг олимпиадасини ўтказиш ва 1 — 3-ўринларни эгаллаган ўқувчиларни олий таълим муассасасининг маблағлари ҳисобидан имтиҳонсиз ўқишга қабул қилиш тўғрисидаги таклифларига розилик берилсин.

12. Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Молия вазирлиги 2021 йилдан бошлаб кимё ва биология фанлари бўйича халқаро ва республика олимпиадалари ғолибларини тайёрлаган профессор-ўқитувчиларга **бир маротаба** ойлик маошининг **100 фоизи** миқдорида, кимё ва биология фанлари бўйича талабалар учун тўгараклар олиб бораётган профессор-ўқитувчиларга ўқув йили давомида олий таълим муассасаларининг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан ойлик маошларига **25 фоиз** миқдорида устама ҳақ белгилаш тартибини жорий этсин.

13. Белгилансинки:

олий таълим муассасаларининг кимё ва биология таълим йўналишлари бўйича имтиёзли дипломга эга бўлган битирувчилари мазкур олий таълим муассасаларининг **магистратура мутахассислигига қўшимча имтиҳонларсиз тўлов-контракт асосида қабул қилинади**;

олий таълим муассасаларининг кимё ва биология мутахассислигини аъло баҳолар билан тамомлаган магистрларни таянч докторантурага олий таълим муассасаларининг кенгаши қарори асосида **имтиҳонларсиз тўғридан-тўғри квота доирасида қабул қилиш тартиби жорий қилинади**.

14. **Кимё ва биология соҳасидаги илмий ташкилотларнинг тармоқ корхоналари билан ҳамкорлигини таъминлаш манзилли дастури** (кейинги ўринларда — Манзилли дастур) 6-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Қуйидагилар:

**Илмий ташкилотларга бириктирилган тармоқ корхоналари** — Манзилли дастурга киритилган ҳар бир илмий ташкилот томонидан амалга ошириладиган тадбирлар учун кўзда тутилган маблағларни ўз муддатларида ва тўлиқ ажратилишини;

**Фанлар академияси Инновацион ривожланиш вазирлиги билан биргаликда** — Манзилли дастур доирасида илмий ташкилотларнинг ишланмаларини тармоқ корхоналарининг талабларига мувофиқ, белгиланган тартибда тақдим этилишини ҳамда **ҳар чоракда ҳисобот ойидан кейинги ойнинг 10-санасига қадар** Вазирлар Маҳкамасига амалга оширилган ишлар натижалари тўғрисида таҳлилий маълумот киритиб борилишини таъминласин.

15. **Кимё ва биология йўналишларидаги илмий ташкилотларнинг истиқболли илмий ишланмаларини тижоратлаштиришни ташкил этиш дастури** (кейинги ўринларда — Тижоратлаштириш дастури) 7-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

Қуйидагилар:

**Илмий ишланмаларни тижоратлаштиришга масъул хўжалик бошқаруви органлари** — Тижоратлаштириш дастурига киритилган ҳар бир ишланмани чуқур ўрганиб чиқиб, келгусида алоҳида ишлаб чиқилган бизнес-режа ва харажатлар сметасига асосан молиялаштирилишини ва шу асосда маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг йўлга қўйилишини;

**Инновацион ривожланиш вазирлиги, илмий ишланмаларни тижоратлаштиришни ташкил этишга масъул вазирлик ва идоралар** — Тижоратлаштириш дастурида белгиланган тадбирларнинг ўз муддатида сифатли бажарилишини мувофиқлаштиришни таъминласин.

16. Белгилаб қўйилсинки, Тижоратлаштириш дастурига киритилган ишланмаларни молиялаштириш манбалари этиб қуйидагилар белгилансин:

илмий ишланмаларни тижоратлаштиришга масъул хўжалик бошқаруви органлари ва корхоналарнинг маблағлари;

Инновацион ривожланиш вазирлиги ҳузуридаги Илмий ва илмий-техник фаолият натижаларини тижоратлаштириш Президент жамғармаси маблағлари;

ёшларнинг инновацион, амалий ва истиқболли стартап лойиҳалари учун Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлигига ажратилган грант маблағлари;

қонун ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар.

17. Инновацион ривожланиш вазирлиги:

Фанлар академиясининг олим ва мутахассисларини мунтазам равишда фан йўналишлари бўйича тегишли илмий-техник кенгашлар таркибига ва соҳага оид эксперт гуруҳларига жалб этиш;

илмий фаолиятга оид давлат дастурлари доирасида якунланган амалий ва инновацион лойиҳалар натижаларини иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳанинг эҳтиёжларига мувофиқ тижоратлаштиришда кўмаклашиш чораларини кўрсин.

18. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари Фанлар академияси ҳамда Инновацион ривожланиш вазирлиги билан биргаликда мазкур қарорнинг 1-иловасига мувофиқ рўйхатда белгиланган **мувофиқлаштирувчи илмий ташкилотлар**нинг таклифлари асосида **кимё ва биология йўналишидаги илмий-техник муаммолар ечимига йўналтирилган илмий фаолиятга оид ҳудудий дастурларни ишлаб чиқиб, 2021 йилдан бошлаб ҳар йили 10 январга қадар** тасдиқлаш учун Фан ва технологиялар бўйича республика кенгашига киритсин.

19. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 сентябрдаги "Ўзбекистон Республикасининг "Давлат харидлари тўғрисида"ги Қонунини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3953-сон қарори билан тасдиқланган Давлат буюртмачилари томонидан тўғридан-тўғри шартномалар бўйича харид қилинадиган товарлар (ишлар, хизматлар) рўйхати қуйидаги мазмундаги банд билан тўлдирилсин:

"38. Илмий фаолиятга оид давлат дастурлари лойиҳаларини бажаришда иштирок этувчи бюджет ташкилотлари томонидан тадқиқотлар ўтказиш мақсадида реактивлар ва реагентлар харид қилиш".

20. Молия вазирлиги ушбу қарорни амалга ошириш билан боғлиқ харажатларни 2021 йилда тасдиқланган бюджет параметрлари доирасида ажратсин, 2022 йилдан бошлаб эса Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджети параметрларида назарда тутсин.

21. Белгилаб қўйилсинки:

Мақсадли дастурда белгиланган топшириқларни сифатли ва ўз вақтида бажарилишини мувофиқлаштириш ҳамда тизимли равишда мониторинг қилиш масъул вазирлик ва идораларнинг раҳбарлари томонидан амалга оширилади ҳамда **ҳар чоракда ҳисобот ойидан кейинги ойнинг 10-санасига қадар** Вазирлар Маҳкамасига умумлаштирилган таҳлилий маълумотлар тақдим этиб борилиши таъминланади.

Бунда:

**Халқ таълими вазирлиги, Агентлик** — умумий ўрта таълим муассасаларида кимё ва биология фанларини ўқитиш сифатини ошириш, ҳудудларда ушбу фанларга ихтисослаштирилган мактаблар фаолиятини ривожлантириш ҳамда янги таянч ихтисослаштирилган мактаблар ва ихтисослаштирилган мактабларни ташкил этиш;

**Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, тегишли олий таълим муассасалари ректорлари** — ўрта махсус, профессионал таълим муассасаларида, фаолият юритаётган ва янги ташкил этиладиган кимё ва биология фанларига ихтисослаштирилган давлат умумтаълим муассасаларига ўқув-услубий ёрдам кўрсатилишини ва уларда кимё ва биология фанларини самарали ўқитишни мувофиқлаштириш;

**Фанлар академияси, тегишли илмий ташкилотлар раҳбарлари** — кимё ва биология йўналишларига ихтисослашган факультетлар, кафедралар ва лабораторияларда самарали ўқув жараёнини таъминлашга илмий-услубий ёрдам кўрсатиш;

**Инновацион ривожланиш вазирлиги, Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Фанлар академияси, тегишли илмий ва олий таълим муассасалари раҳбарлари** — ишлаб чиқариш тармоқлари мавжуд муаммоларининг илмий ечимига қаратилган илмий ҳажмдор маҳсулотлар яратилишини, мазкур тузилмаларнинг илмий кадрлар салоҳиятини оширишга кўмаклашиш юзасидан мунтазам равишда тегишли ташкилий чора-тадбирларни амалга оширсин.

22. Адлия вазирлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда икки ой муддатда қонун ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

23. Мазкур қарорнинг ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Президентининг маслаҳатчиси А. А. Абдувахитов ва Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари Б. А. Мусаев зиммасига юклансин.

Ушбу қарор натижадорлиги тўғрисида 2021 йил 1 январь ва 1 июлда Ўзбекистон Республикаси Президентига ахборот берилсин.

**Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. МИРЗИЁЕВ**

Тошкент шаҳри,
2020 йил 12 август

## Муносабат

# ЗАМОНАВИЙ КАСБ-ҲУНАР ВА ТАДБИРКОРЛИК КЎНИКМАЛАРИГА ЎҚИТИШ ОРҚАЛИ ИШСИЗ ФУҚАРОЛАРНИНГ БАНДЛИГИ ТАЪМИНЛАНАДИ

*Президентимизнинг "Камбағал ва ишсиз фуқароларни тадбиркорликка жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касб-ҳунарга ўқитишга қаратилган ҳамда аҳоли бандлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарори мамлакатимизда камбағал ҳамда ишсиз фуқароларни замонавий касб-ҳунар ва тадбиркорлик кўникмаларига ўқитиш орқали уларнинг бандлигини таъминлашга қаратилган кенг кўламли чора-тадбирларни белгилаб бергани билан аҳамиятлидир.*

*Ушбу ҳужжатнинг мазмун-моҳияти ҳамда аҳамияти ҳақида соҳа вакилларининг фикр-мулоҳазаларини ёзиб олдик.*

**Нодира УМАРОВА, Тошкент шаҳридаги "Ишга марҳамат" мономаркази директори:**

— Қарорга биноан Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигига маҳаллий давлат ҳокимияти органлари билан биргаликда 2021 йил 1 январга қадар Қорақалпоғистон Республикаси ҳамда вилоятларда жами 13 та "Ишга марҳамат" мономаркази, бир ой муддатда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида вазирлик тизимидаги 30 та касб-ҳунарга ўқитиш марказини ташкил этиш вазифаси юклатилди. Ушбу мақсадлар учун 150 миллиард сўм маблағ ажратилиши белгиланди.

Бугунги кунда фуқароларимиз иш излаб бандликка кўмаклашиш марказига бориши ёки ўзининг бандлигини таъминлаш учун бирор-бир идорага сарсон бўлиб юриши шарт эмас. Фуқаро мономарказга келиши билан вакант жойлар билан танишади. Ёки ўзига маъқул бўладиган бирор-бир касб-ҳунар эгалламоқчи бўлса, ўша ернинг ўзида, қисқа муддатда уни ўқитиш имконияти бор. Бундан ташқари, ўқишни битиргандан кейин якка тадбиркор бўлмоқчи бўлган фуқаролар марказда бизнес юритиш сир-асрорлари бўйича ўқитилади. Марказда фуқароларни 22 та касб бўйича ўқитиш имконияти мавжуд. Ички меҳнат бозорига қандай ходимлар керак, қандай касб эгалари зарур, мана шундан келиб чиқиб, қисқа муддатда ўқув режани ўзимиз танлаймиз.

**Одил КОМИЛЖОНОВ, Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги бўлим бошлиғи:**

— Қарорнинг асосий тамойиллари, Ўзбекистон Республикасида касб-ҳунарга ўқитиш таълим тизимини янгидан ташкил қилиш, уни такомиллаштириш мақсадлари "Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили" Давлат дастуридаги вазифаларга ҳамоҳанг. Касб-ҳунарга ўқитиш таълим тизимида йиллар давомида вужудга келган ўзига хос камчиликлар мавжудлиги намоён бўлди. Янги тизим истиқболлилиги ва бугунги бозор иқтисодиёти шароитида қисқа муддатда ишсиз аҳолини бирор-бир касб билан таъминлашга қаратилгани билан эътиборга молик.

Вазирлигимиз томонидан Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан ҳамкорликда бир ой муддатда пойтахт туманларида 11 та қисқа муддатли касб-ҳунарга ўқитиш курси, Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги билан биргаликда икки ой муддатда маҳалла аҳолисини касб-ҳунарга ўргатувчи 136 та маскан ташкил этилади. Мақсад — уйда ишсиз ўтирган камбағал оилалар вакиллари, опа-сингилларимиз, аёлларимизни иш билан қамраб олиш. Қисқа муддат ичида уларни касбга ўқитиб, иш билан таъминлаб ҳамда уларга даромад олиш манбаини яратиб бериш. Масалан, аёлларни тикувчилик, сартарошлик, ошпазлик, қандолатчилик, йигитларни сантехник, электрик ва пайвандчилик касбларига ўқитиш ташкил қилинади.

# ЕТУК МУТАХАССИСЛАР ҲАР ҚАНДАЙ СОҲА РИВОЖИ КАФОЛАТИДИР

*Президентимиз томонидан мамлакатимиз тараққиётига оид яна бир ҳужжат — "Кимё ва биология йўналишларида узлуксиз таълим сифатини ва илм-фан натижадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорга имзо чекилди. Ҳужжатнинг эртанги кунга дахлдорлик тарафининг энг асосий жиҳати шундаки, у келажак авлод вакилларини сифатли билим олишлари учун, пировардида, етук мутахассис бўлиб етишишлари учун қулай шарт-шароитлар яратишга қаратилган. Яна денг, шу пайтгача қайсидир маънода эътибордан четда қолаётган кимё ва биология соҳасида. Бу, албатта, диққатга сазовор ва эътирофга молик жараён. Ахир кимё ва биологиянинг иқтисодиётда, умуман, мамлакат ривожида аҳамияти катта. Шу маънода, мазкур қарорни ҳар икки тармоқ келажаги учун қўйилган навбатдаги мустаҳкам қадам, десак, муболаға эмас.*

*Буни қуйидаги фикр-мулоҳазалар ҳам яққол тасдиқлайди.*

**Ботир УСМОНОВ, Тошкент кимё-технология институти ректори:**

— Қарорга мувофиқ, тўрт йил давомида кимё ва биология фанларини ўқитишнинг ягона тизими яратилиши белгиланмоқда. Бунда, яъни оддий мактабларда кимё ҳамда биология фанидан умумий маълумот берилади. Мактабларнинг энг иқтидорли ўқувчилари туман ва шаҳарларда ташкил этиладиган ихтисослаштирилган мактабларга саралаб олинади. Шунингдек, ҳар бир вилоятда таянч мактаблар фаолияти йўлга қўйилади ҳамда уларга вилоятдаги энг иқтидорли ўқувчилар қабул қилинади. Тўрт йил давомида жами 164 та ихтисослаштирилган мактаб ташкил этилади. Бу мактабларда болаларни айнан кимё ва биология йўналиши бўйича мақсадли ўқитиш йўлга қўйилади.

Бундан ташқари, ушбу мактабларда ишловчи ўқитувчилар ойлигига Давлат бюджетидан устама ҳам белгиланмоқда. Шу билан бирга, ушбу мактаблар моддий-техника базасини шакллантириш ва бошқа масалалар учун ҳар бир вилоятда махсус жамғарма ташкил этилиши белгиланган. Ҳар бир мактабга олий таълим ҳамда илмий муассаса бириктирилгани ҳам ўқувчиларнинг сифатли таълим олишлари учун қўл келади.

**Сарвар БАБАХОДЖАЕВ, Президент, ижод ва ихтисослаштирилган мактабларни ривожлантириш агентлиги директори:**

— Назария билан бирга амалий машғулотларга ҳам катта эътибор бериш керак. Чунки болаларнинг ўзи маълумотни қидириб, керакли билимни олиши учун имкониятлар бўлиши лозим. Айнан шу сабаб мактабларда лабораторияларни ташкил этиш алоҳида диққатни талаб қилади. Бу, албатта, ўқувчиларнинг жараёнда қатнашиш, тажрибаларни бевосита кузатиш имконини беради.

Президентимизнинг қарори ўқувчиларга айнан шундай шароит яратишга қаратилгани билан аҳамиятлидир.

**«Халқ сўзи».**

# САМАРҚАНД ЁШЛАР ФОРУМИ




## Глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор ривожланиш ва инсон ҳуқуқларини, тинчлик ва тараққиётни таъминлаш йўлида навқирон авлод томонидан қўйилган муҳим амалий қадам.

1 Тадбирда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ҳамда Қонунчилик палатаси ҳузуридаги Ёшлар парламентлари, Ёшлар ишлари агентлиги, шунингдек, мамлакатимизнинг барча ҳудудидан ўттиздан зиёд ёшлар ташкилотлари вакиллари ва ўқувчи-талабалар ҳам қатнашяпти. Веб-форум иштирокчиларининг жами сони — 750 киши.

Самарқанд форумининг расмий очилиш маросимига Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Спикерининг биринчи ўринбосари, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази директори Акмал Саидов билан БМТнинг Наркотиклар ва жиноятчиликка қарши курашиш бошқармаси (ЮНОДС) минтақавий вакили, БМТ доимий вакили вазифасини бажарувчи Ашита Миттал модераторлик қилди.

Дастлаб Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд веб-форуми иштирокчиларига табригини Олий Мажлис Сенати Раиси Танзила Норбоева ўқиб эшиттирди.

Самарқанд форуми иштирокчиларини нуфузли халқаро ҳамда минтақавий ташкилотлар раҳбарлари ва юқори даражадаги вакиллари қутладилар.

Хусусан, БМТ Бош котиби Антониу Гутерриш, БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича Олий комиссари Мишель Бачелет, ЮНЕСКО бош директори Одри Азуле, Парламентлараро Иттифоқ бош котиби Мартин Чунгонг, ЕХҲТ Парламент Ассамблеяси президенти Георгий Церетели, Осиё Парламент Ассамблеяси бош котиби Муҳаммад Ризо Мажидий, МДҲ Ижроия қўмитаси раиси — Ижрочи котиби Сергей Лебедев, ШҲТ Бош котиби Владимир Норов, ЕХҲТ бош котиби вазифасини бажарувчи, Низоларнинг олдини олиш маркази директори Туула Юрьёля, ЕХҲТ Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси директорининг биринчи ўринбосари Катаржина Гардапхадзе, БМТ Аҳолишунослик фонди (ЮНФПА) Шарқий Европа ва Марказий Осиё бўйича минтақавий ваколатхонаси директори Аланна Армитаж, БМТТДнинг Европа ва МДҲ бўйича директори ўринбосари Аги Верес, Қонун орқали демократия учун Европа комиссияси (Европа Кенгашининг Венеция комиссияси) президенти Жанни Букиккио, БМТ Бош котибининг Ёшлар бўйича вакили Жаятма Викраманаякенинг видеотабриклари тақдим этилди.

Самарқанд форумининг биринчи ялпи мажлисида ёшлар ҳуқуқлари бўйича халқаро стандартларни ишлаб чиқиш масалалари муҳокама қилинди. ЕХҲТнинг Ўзбекистондаги лойиҳалари мувофиқлаштирувчиси Жон МакГрегор билан Ўзбекистон Республикаси ташқи ишлар вазири ўринбосари Шерзод Асадов модераторлик қилган ушбу сессияда дастлаб ёшлар ҳуқуқлари соҳасидаги мавжуд халқаро-ҳуқуқий воситалар ва механизмлар кўриб чиқилди.

Бугун ёшлар дунёдаги жами аҳолининг катта қисмини, яъни 2 миллиарддан зиёдни ташкил этади. Бу аксарият мамлакатларда, жумладан, Ўзбекистонда ҳам, аҳолининг ўсиб борадиган катта қисми ёшлардан иборат, дегани. Шу маънода, ёшларнинг барча ҳуқуқини, хусусан, иқтисодий, ижтимоий, маданий, фуқаролик ҳамда сиёсий ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва амалга оширишни таъминлаш учун янада кўпроқ ҳаракат қилиш лозим.

Аммо ушбу соҳада мажбурий мазмунга эга муайян халқаро ҳужжат ҳалигача қабул қилинмаган. Бу ёшларга оид давлат сиёсатининг замонавий қонунчилик базасини шакллантиришни мураккаблаштиряпти. Шу билан бирга, аҳолининг ёшлар қисмига кимлар мансублигини аниқлаш бўйича халқаро мезонларни ишлаб чиқиш зарурияти мавжуд.

Халқаро анжуман иштирокчилари 2017 йил 19 сентябрда БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида Ўзбекистон томонидан илгари сурилган халқаро ташаббуслар доирасида ишлаб чиқилган Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенция лойиҳасини муҳокама қилдилар. Мазкур конвенция — том маънодаги янги ҳужжат бўлиб, унда ёшларнинг ҳозирги замонда дунё миқёсида эътироф этилиши зарур бўлган ҳуқуқларини ўзида акс эттирган.

Энг асосийси, конвенцияда "ёшлар сиёсати" тушунчаси моҳиятига ҳаётнинг турли соҳа ва тармоқлари: давлат ва хусусий сектор, шунингдек, нодавлат ташкилотларнинг ёшларга қаратилган фаол фаолиятига доир сиёсат сифатида кенг маъно сингдирилган.

Самарқанд халқаро форуми бугун ўз ишини давом эттиради.

## Сўз — халқаро форум иштирокчиларига

**Акмал САИДОВ,**
**Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Спикерининг биринчи ўринбосари, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази директори:**

— Форум доирасида муҳокамага қўйилган Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияни ишлаб чиқиш Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев ташаббусидир. Бу ташаббус давлатимиз раҳбари томонидан 2017 йил 19 сентябрда БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида илгари сурилган эди. Ушбу ташаббусдан кейин ўзимизга ўзимиз савол бердик: бу конвенция нима учун керак?

Эътибор берсак, 18 ёшгача бўлган ёшлар тўғрисида, қариялар, аёллар, ногиронлиги бор инсонлар ҳақида ҳужжатлар бор, аммо аҳолининг энг катта қисмини ташкил этадиган ёшлар тўғрисида ҳеч қандай халқаро ҳужжат йўқ. Бу биринчи эҳтиёж.

Иккинчиси, бу концепцияни тайёрлаш жараёни. Аввало, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази томонидан конвенция лойиҳасини ишлаб чиқиш бўйича миллий ҳамда халқаро, хорижий экспертлар, мутахассислар, олимлар, ёшлар ташкилотлари ва фуқаролик жамияти институтлари вакилларидан ташкил топган махсус ишчи гуруҳ тузилиб, фаолияти тизимли ташкиллаштирилди. Лойиҳани тайёрлаганимиздан сўнг дастлаб БМТнинг Тошкентдаги ваколатхонаси ҳамда БМТ агентликларига тақдим этдик.

Конвенция лойиҳаси учта манбага асосланиб тайёрланди. Аввало, ёшларга оид турли давлатларда қабул қилинган қонунлар ва миллий қонунчиликни ўргандик. Биз бунда элликдан ортиқ мамлакатларда қабул қилинган қонунларни таҳлил қилдик.

Иккинчи манба, бу — турли минтақалардаги ёшларга оид йигирмадан зиёд минтақавий халқаро ҳужжатлардир. Масалан, Африка Иттифоқи, Америка давлатлари ташкилоти, Европа Кенгаши, Ислом ҳамкорлик ташкилоти, МДҲ кабиларнинг ҳужжатлари кўриб чиқилди.

Учинчиси, универсал характердаги халқаро ҳужжатлар. Бу БМТ ва унинг ихтисослаштирилган ташкилотлари, ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ, Халқаро меҳнат ташкилоти, Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти, Парламентлараро Иттифоқ ва бошқаларнинг 30 дан ортиқ ҳужжатларини ўргандик. Мана шу мавжуд норматив ҳужжатлар асосида бугунги муҳокамадаги лойиҳа ишлаб чиқилди. Лойиҳа 2017 йилдан буён, яъни икки йилдан буён миллий, минтақавий ва халқаро даражада ҳам муҳокамалардан ўтди. Швейцария, Буюк Британия, Россияда лойиҳанинг тақдимотларини ўтказдик.

Шу ўринда муҳим жиҳатга аҳамият қаратиш жоиз. Лойиҳани тайёрлашда қийин масала нимада бўлди, деб сўрасангиз, кимларни ёшлар деб аташ мумкинлиги бизни кўп ўйлантирди. Чунки турли халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда ёшларнинг ёш тоифаси турлича талқин қилинган. Биз кўп муҳокамалардан кейин ёшларнинг ёш хусусиятларини аниқ 18 — 30 ёш, деб белгиладик.

Конвенция қабул қилингач, биринчидан, дунё ёшларининг ҳуқуқ ва эркинликларини бир тизимга солиш, иккинчидан, нафақат Ўзбекистон, балки бутун жаҳон ёшларининг ҳам миллий, ҳам минтақавий, ҳам халқаро даражадаги фаоллигини ошириш, энг муҳими, конвенция талабларини бажаришда давлатлар масъулиятини кучайтириш мумкин бўлади.

**Мишель БАЧЕЛЕТ,**
**БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича Олий комиссари:**

— Халқаро ёшлар кунининг 20 йиллиги нишонланаётган бир пайтда ушбу анжуманда иштирок этаётганимдан хурсандман. Шу билан бирга, иккита ўзаро боғлиқ ҳалокат — коронавирус пандемияси ҳамда иқлим ўзгариши барқарор ривожланиш йўлидаги ўсиш, инсон ҳуқуқлари соҳасида кўплаб муҳим мақсадларга эришишни секинлаштиришга хавф солаётган пайтда ижтимоий ҳаётнинг барча фаолият соҳалари ва шаклларида ёшларнинг сезиларли иштирокини ошириш устида ишлашимиз ўта муҳимдир.

Зеро, COVID-19 пандемияси ёшларга салбий таъсир этаётганини кўрсатувчи кўплаб белгилар бор. У таълим, касбга тайёрлаш ва меҳнат бозорига жиддий зарар етказди. Бу очликни пайдо қилиб, қашшоқликни кўпайтиряпти, нотенгликни чуқурлаштираётир. Хусусан, бундан кўплаб қизлар, ёш аёллар ва миллий, ирқий ҳамда диний камчилик вакиллари азият чекмоқда. Бу бутун дунё иқтисодиёти истиқболини ўзгартириб юбориши мумкин.

Муаммони ҳал этиш ва янада замонавий тизимни қайта тиклаш учун эса тенгсизлик ҳамда тараққиёт дефицитини бартараф этиш, йўқ қилишга қаратилган чора-тадбирлар кўмагида коронавирус таҳдидларига жавоб беришимиз зарур. Биз адолат ҳамда барчага ҳурматни қўллаб-қувватлайдиган чора-тадбирлар ёрдамида ижтимоий жипсликни мустаҳкамлашимиз лозим.

Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми, бу — бутун минтақа ёшлари учун ўз тажрибасини ўртоқлашиш, ҳукуматлар вакиллари учун эса уларни эшитиш имконини яратади. Бу иштирокчилар учун барқарор ривожланишга эришиш ҳамда сиёсат ёшлар эҳтиёжлари ва овозларини инобатга олишини таъминлашда навқирон авлоднинг ролини кучайтириш йўлларини излаш имкониятидир.

**Владимир НОРОВ,**
**ШҲТ Бош котиби:**

— Мамлакатларимизда ёшлар давлат ҳамда халқаро ҳукумат ва ноҳукумат ташкилотлари кўмагига муҳтож. Бу ёш авлодни қўллаб-қувватлаш, унинг ҳуқуқлари ва эркинликлари ҳимояси, давлатларимиз манфаати йўлида ижодий салоҳиятини юзага чиқаришга қаратилган ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, ташкилий ва ҳуқуқий чора-тадбирларни қабул қилиш йўли билан амалга оширилади.

Бугун Ер шари ёшларининг қарийб ярми ёки 800 миллиондан зиёд инсон Шанхай ҳамкорлик ташкилоти маконида истиқомат қилади.

Мамлакатларимиз ёшлари куч-ғайрати, яратувчанлиги ва дадил ғоялари билан ШҲТ фаолиятининг турли соҳаларини янада ривожлантириш йўлида муҳим таянчдир.

Маълумки, бугун ёшлар — ўсмирлар ва қизларнинг мурғак онгини манипуляция қилиш орқали уларни жиноий фаолиятга тортишга уринаётган турли бузғунчи ва террорчилик кучларининг объектига айланган.

Бинобарин, ШҲТ ёшларнинг террорчилик, айирмачилик ва экстремистик тузилмаларга жалб қилинишига қарши курашиш учун аниқ чоралар кўрмоқда. Жумладан, 2018 йил Циндаода бўлиб ўтган ШҲТ саммити якунида Ўзбекистон ташаббуси билан давлат раҳбарлари томонидан ёшларнинг Қўшма мурожаати ва уни амалга ошириш бўйича Ҳаракатлар дастури қабул қилинди.

БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенциянинг БМТ Бош Ассамблеясида қабул қилиниши эса ёш авлодни баркамол ривожлантириш, мамлакатларимиз фаровонлиги ва барқарор тараққиёти, пандемиянинг салбий оқибатларини енгиб ўтиш йўлида ундаги улкан салоҳиятни рўёбга чиқариш борасида давлат ва умуман, бутун дунё ҳамжамияти олдида турган чақириқлар ҳамда имкониятларга нисбатан ўз вақтида қилинган амалий ва муносиб жавобга айланиши мумкин.

**Аги ВЕРЕС,**
**БМТ Тараққиёт дастурининг Европа ва МДҲ бўйича директори ўринбосари:**

— Инсон ҳуқуқлари доирасида Ўзбекистон Республикаси Президенти ташаббуси билан Самарқандда ўтказилаётган халқаро форумда иштирок этаётганимдан мамнунман. Халқаро ёшлар куни муносабати билан форумда асосий эътибор ёшлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масалаларига қаратилганлигида ҳам рамзий маъно бор, албатта.

Маълумки, Ўзбекистонда 30 ёшгача бўлган ёшлар аҳолининг деярли 60 фоизини ташкил қилади. Давлатингиз томонидан ёшларнинг келажаги учун йўналтирилаётган сармоя, уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини ҳар жиҳатдан ҳимоя қилиш, қўллаб-қувватлаш ҳамда шарт-шароитлар яратиш борасида амалга оширилаётган ишлар ҳам таҳсинга лойиқ.

Булар Ўзбекистон парламенти томонидан қабул қилинган ёшлар тўғрисидаги қонун ҳужжатлари, ёшларга оид давлат сиёсатида ҳам ўз ифодасини топган. Яқинда давлат раҳбари томонидан Ёшлар ишлари агентлигини ташкил этиш бўйича қабул қилинган қарорни ҳам ана шу йўналишдаги яна бир муҳим қадам, деб баҳолаш мумкин.

Коронавирус пандемиясига қарамасдан ташкил этилган ва ёшлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш масалалари муҳокама қилинаётган мазкур онлайн-форум ёшларимизнинг келгусидаги фаоллигини янада оширишга хизмат қилади, деган умиддаман.

**Одри АЗУЛЕ,**
**ЮНЕСКО бош директори:**

— Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларациясининг биринчи моддасида "Ҳамма одамлар ўз қадр-қиммати ҳамда ҳуқуқларида эркин ва тенг бўлиб туғиладилар" деб таъкидланган.

Одамлар бир-бирларини ҳурмат қилиб, инсон ҳуқуқларини рағбатлантириб, ирқчилик ва антисемитизмнинг исталган шаклларига қарши курашиб, шунингдек, ўзаро мулоқот ва тинчлик маданиятини қўллаб-қувватлаган ҳолда ушбу идеални амалда ҳар куни қўллашлари мумкин.

Бу Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд декларациясининг асосий ғояси ҳисобланади. Мазкур форум ана шу ғояларни янада мустаҳкамлашга хизмат қилади. Унда иштирок этаётганимдан хурсандман.

**Туула ЮРЬЁЛЯ,**
**ЕХҲТ бош котиби вазифасини бажарувчи, Низоларнинг олдини олиш маркази директори:**

— Давлат нафақат инсон ҳаёти, балки унинг қадр-қимматини муҳофаза қилишга ҳам масъулдир. Инсон ҳуқуқлари ҳамда инклюзив жамият — зўравонликнинг олдини олиш ва тинчликни қўллаб-қувватлаш учун зарур шароит ҳамда самарали воситалар саналади.

Барча инсонлар — эркакларнинг ҳам, аёлларнинг ҳам сиёсий ҳаёт ва ижтимоий интеграциядаги тенг иштирокини таъминлаш устуворлик касб этиши шарт. Бу хавфсизликнинг гендер жиҳатларига алоҳида эътибор қаратиш кераклигини англатади.

Пандемиянинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари ёшлар келажагини хавф остига қўйган ҳолда уларга жиддий таъсир қилди. Боз устига, кўплаб ёш авлод вакиллари новаторлик ечимлари билан инқирозга жавоб қайтаришди. Ҳукумат — ёшлар тоифасига кирмайдиган барчамиз ёшларни пандемиянинг кўплаб муаммоларини ҳал этиш бўйича саъй-ҳаракатларга жалб этган ҳолда, ўз энергиямиз ва ижодкорлигимиздан фойда чиқаришимиз мумкин.

Ўтган йили хавфсизлик масалалари бўйича умумий дебатларимизда ёшларнинг овозлари ҳамда фикрларини бирлаштириш мақсадида "20 — 30 истиқболлари" ташаббусини ишга туширдик. Бунинг учун ЕХҲТнинг барча минтақасидан ёшларни йиғдик. Бу янада хавфсиз келажак ҳақидаги қарашларни ишлаб чиқиш учун зарур эди.

Ёш экспертлар келаётган ўн йиллик ва ундан кейинги давр учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга олтита — инсон ҳуқуқлари, қонун устуворлиги, тинчликни тиклаш, таълим, янги технологиялар, атроф-муҳит муҳофазаси ва энергетика соҳасини белгилаб олди.

Самарқанд форуми ҳам айнан шу нуқтаи назардан долзарбдир.

**Моҳистара МУҲАММАДЮНУСОВА,**
**Олий Мажлис Сенати ҳузуридаги Ёшлар парламенти раиси:**

— Самарқанд форуми юқори даражада бўлиб ўтяпти. Зеро, кўплаб ривожланган давлатлардаги каби мамлакатимизда ҳам ёшлар масаласига алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Ёдингизда бўлса, Президентимиз БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияни ишлаб чиқиш борасидаги таклифни илгари сурганда нафақат Ўзбекистон, балки бутун дунё ёшлари кенг қўллаб-қувватлаган эди. Сабаби шу кунгача ёшларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қиладиган, уларнинг манфаатларини рўёбга чиқаришга хизмат қиладиган халқаро даражадаги бундай ҳужжат қабул қилинмаган.

Бугунги кунда аксарият давлатларда кузатилаётган муаммоларнинг келиб чиқиш сабаблари ҳам ёшлар билан боғлиқлигини барчамиз яхши биламиз. Ёшларнинг онгу тафаккурини маърифат асосида шакллантириш ва тарбиялаш эса энг муҳим вазифалардан бири бўлиб қолмоқда. Биргина Ўзбекистон мисолида оладиган бўлсак, 30 ёшгача бўлган ёшлар ва болалар мамлакат аҳолисининг 54 фоизини ташкил этади. Уларнинг 9,8 миллиони ўғил болалар, 9,1 миллиони эса қизлар ва ёш аёллардир.

Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция лойиҳаси Олий Мажлис Сенати ҳузуридаги Ёшлар парламенти томонидан атрофлича ўрганиб чиқилди. Унда ёшлар ҳаёти ва фаолиятига доир долзарб масалалар ўз аксини топган. Шундай бўлса-да, ушбу лойиҳани такомиллаштиришга доир айрим фикр-мулоҳазаларимизни билдирдик. Ўйлаймизки, мазкур ҳужжат келгусида дунё ёшларининг ҳуқуқ ва манфаатларини тўла ҳимоя қила оладиган дастурга айланади. Шу маънода, Самарқанд форумининг нуфузи янада ошади, десак, айни ҳақиқат.

**Адиш АГАРВАЛА,**
**Халқаро ҳуқуқшунослар кенгаши президенти (Ҳиндистон):**

— Бугунги кунда бутун дунёда ёшлар масалалари ва уларга кўрсатилаётган эътибор жудаям долзарб аҳамият касб этмоқда. Бундай вазиятда барча ҳукуматлар, барча миллатлар ўзаро бирлашиб, ёшлар қандай қийинчиликларга дуч келаётганини аниқлаб, уларни енгиб ўтиши учун ёрдам бериши лозим, деб ўйлайман.

Албатта, Ўзбекистон томонидан 2017 йилда ушбу масала юзасидан махсус конвенция қабул қилиш таклифи билдирилди. Биламизки, ёшлар дунё аҳолисининг катта қисмини ташкил этади. Бу ниҳоятда салмоқли рақам. Хабаримиз бор, Ўзбекистонда ҳам ёшлар салмоқли миқёсга эга. Бу, ўз навбатида, ҳукуматларга ёшларни иш билан таъминлаш, уларнинг юқори сифатли таълим олиши учун зарур шароитни яратиш масъулиятини ҳам юклайди, шунга оид муаммоларни кўндаланг қўяди.

Бутун дунё ёшлари ўзларининг сиёсий қарашларини тўлиқ ифода этишлари учун ҳам барча имкониятга эга бўлиши лозим. Мамлакатдаги муҳим сиёсий қарорларни қабул қилишда ёшларнинг иштироки самарали бўлиши учун ёшлар ўзининг дунёқарашини имкон қадар кенгайтириши зарур. Ҳукумат ёшлар томонидан билдирилаётган фикр ва таклифларни қадрлаши ҳамда инобатга олиши керак.

Ёшлар фикр ва сўз эркинлигига ниҳоятда муҳтож аҳоли қатламидир. Шу боис ёшларнинг ҳаётини таҳлил қилишга ва янада яхшилашга ёрдам берувчи тизимларни қўллаб-қувватлаш, ёшлар ҳақидаги маълумотлар базасини яратишни таклиф этган бўлардик. Илтимос, ёшларга кенг йўл очайлик! Бу билан эртамизни янада яхшилашга имкон берган бўламиз.

**«Халқ сўзи».**

## КУННИНГ МУҲИМ СИЁСИЙ ВОҚЕАСИГА АЙЛАНДИ

### Дунё оммавий ахборот воситалари ушбу анжуманни кенг ёритмоқда.

*Шу кунларда бўлиб ўтаётган "Ёшлар 2020: глобал миқёсдаги бирдамлик, барқарор тараққиёт ва инсон ҳуқуқлари" мавзуидаги инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд онлайн форуми дунё матбуоти диққат марказида бўлиб турибди. Тадбирнинг бошланиши ҳақидаги хабар ва мақолалар, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг тадбир иштирокчиларига йўллаган табриги, шунингдек, форум фаолияти чет эл нашрларида кенг ёритилмоқда.*

### "Халқ сўзи" газетаси учун махсус

Жумладан, Жанубий Кореянинг **"The Korea post"** нашри тадбир Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази томонидан халқаро шериклар — БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича Олий комиссариати, унинг Марказий Осиё бўйича минтақавий ваколатхонаси, БМТ Тараққиёт дастури, ЕХҲТнинг Демократик институтлар ва инсон ҳуқуқлари бўйича бюроси, ЕХҲТнинг Ўзбекистондаги лойиҳалари мувофиқлаштирувчиси ҳамда бошқа халқаро шериклар билан ҳамкорликда ташкил этилгани ҳақида хабар тарқатди.

"Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми — 2018 йил 22-23 ноябрь кунлари бўлиб ўтган Осиё форумининг мантиқий давомидир. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев БМТнинг ёшлар ҳуқуқлари бўйича халқаро конвенциясини ишлаб чиқишни таклиф қилди. Ўзбекистонда ушбу ҳужжатни ишлаб чиқиш бўйича ишлар бошланди. БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенцияси лойиҳаси тайёрланди ва ушбу ҳужжат Самарқанд форуми доирасида муҳокама қилинмоқда", дея хабар қилади "The Korea post".

Россиянинг етакчи оммавий ахборот воситалари Самарқанд онлайн форуми ишига атрофлича тўхталиб ўтмоқда.

Хусусан, **РИА "Новости" ахборот агентлиги** Президент Шавкат Мирзиёевнинг форум иштирокчиларига йўллаган табригидан иқтибослар келтирган.

Хусусан, агентлик ўз ўқувчилари эътиборини давлатимиз раҳбарининг "Келажакка интилиб яшайдиган ёш авлод сайёрамизда фаровон ҳаёт ва юксак тараққиёт барқарор бўлиши учун янги ғоялар ва ижодий руҳдаги саъй-ҳаракатларни амалга оширадиган беқиёс кучдир", деган сўзларига қаратган.

**"Интерфакс" ахборот агентлиги** Президент Шавкат Мирзиёев Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд онлайн форуми иштирокчиларига йўллаган табригида бугунги куннинг долзарб муаммоларига ечим топишда ёшларнинг фаол иштирок этиши зарурлиги ҳақида фикр билдирганини таъкидлаган.

"Бундай шароитда ёшларнинг овозига қулоқ тутиш жуда муҳимдир. Уларнинг долзарб эҳтиёжларини таъминлаш, ҳуқуқ ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган миллий, минтақавий ва глобал стратегия ва дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга оширишда бевосита иштирок этишлари учун ёшларга имконият яратиб бериш зарур", дея Ўзбекистон раҳбари сўзлари қайд этилади "Интерфакс" хабарида.

**"Sputnik" агентлиги** Ўзбекистон раҳбарининг Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми иштирокчиларига йўллаган табригида дунё ҳамжамияти дуч келаётган муаммолар ҳақида гапириб, уларни ҳал этиш ёшларнинг фаол иштирокини талаб қилиши ҳақидаги фикрларини ўз хабарларида алоҳида қайд этади.

"Бугунги кунда инсоният дуч келаётган кўплаб муаммолар — тинчлик ва хавфсизликка таҳдидлар, терроризм ва экстремизм, ирқчилик, иқлим ўзгаришлари, шунингдек, COVID-19 пандемияси — ўзаро келишилган глобал ҳамкорликни ва мавжуд муаммоларни ҳал этиш жараёнларига ёшларни фаол жалб қилишни талаб этмоқда", дея Президентимиз фикрларига урғу берилади агентлик манбасида.

Латвиянинг **"LETA" миллий ахборот агентлиги** 12-13 август кунлари видеоконференция шаклида ўтказилаётган Инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд форуми ҳақида латиш, инглиз ва рус тилларида хабарлар тарқатди.

"Бу ушбу мавзудаги иккинчи халқаро форумдир, — дейилади хабарда. — Форумнинг мақсади инсон ҳуқуқлари соҳасида халқаро ва минтақавий ҳамкорликни кучайтириш. Мазкур мавзудаги биринчи халқаро анжуман — Инсон ҳуқуқлари бўйича Осиё форуми 2018 йил 22-23 ноябрь кунлари Самарқанд шаҳрида бўлиб ўтган эди. Унинг иштирокчилари қабул қилган Самарқанд декларацияси 2019 йил 6 февраль куни Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеяси 73-сессиясининг ҳужжати сифатида тарқатилган. Бундан ташқари, форум якунларига кўра ушбу тадбирни ҳар икки йилда бир марта ўтказишга келишиб олинган эди".

Агентлик форум кун тартибига ёшларнинг БМТнинг Барқарор ривожланиш мақсадлари ва БМТнинг Инсон ҳуқуқлари бўйича таълим соҳасидаги Умумжаҳон дастурини амалга оширишдаги ўрни билан боғлиқ масалалар киритилганини маълум қилган. Шунингдек, Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция лойиҳаси муҳокама қилинмоқда.

"LETA" БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенциясини ишлаб чиқиш ва қабул қилиш ташаббуси Президент Шавкат Мирзиёевга тегишли экани ва у БМТнинг Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида илгари сурилганини таъкидлаган.

Тожикистоннинг етакчи **"ASIA-plus"** ва **"Avesta"** ахборот агентликлари томонидан кеча бошланган инсон ҳуқуқлари бўйича Самарқанд онлайн форуми ҳақида материаллар чоп этилди.

"Форум Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг иккита йирик халқаро ташаббуси — Инсон ҳуқуқлари бўйича доимий Самарқанд форумини ташкил этиш ва БМТнинг Ёшлар ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро конвенциясини ишлаб чиқиш доирасида ўтказилмоқда, — дея ёзилади "Avesta"да. — Ушбу ташаббуслар Ўзбекистон раҳбарининг 2017 йил сентябрь ойида БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги иштироки доирасида илгари сурилган эди".

"ASIA-plus" Самарқанд форумида Тожикистоннинг давлат тузилмалари раҳбарлари, етакчи олим ва экспертлардан иборат вакиллар делегацияси қатнашаётганини хабар қилган.

"Самарқанд форуми — Ўзбекистон Президенти ташаббуси билан 2018 йил 22-23 ноябрь кунлари Самарқанд шаҳрида бўлиб ўтган Инсон ҳуқуқлари бўйича Осиё форумининг мантиқий давомидир", деб ёзилади "ASIA-plus" ахборот агентлигида.

**«Дунё» АА.**

Халқ сўзи
Народное слово

МУАССИСЛАР:
Ўзбекистон Республикаси
Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси Кенгаши,
Ўзбекистон Республикаси
Олий Мажлиси Сенати Кенгаши

Бош муҳаррир Ўткир РАҲМАТОВ

2020 йил 25 мартда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида 0001-рақам билан рўйхатга олинган. Нашр индекси — 229. Буюртма Г — 856. 31 961 нусхада босилди, ҳажми — 2 табоқ. Офсет усулида босилган. Қоғоз бичими А—2. Баҳоси келишилган нархда.

Газетамиз ҳақидаги маълумотларни юклаб олиш учун QR-кодини телефонингиз орқали сканер қилинг

ТЕЛЕФОНЛАР:
Девонхона 71-233-52-55;
Котибият 71-233-10-28; Эълонлар 71-232-11-15.

ISSN 2010-8788

Таҳририятга келган қўлёзмалар тақриз қилинмайди ва муаллифга қайтарилмайди.

Газетанинг етказиб берилиши учун обунани расмийлаштирган ташкилот жавобгар.

Газета таҳририят компьютер марказида терилди ҳамда оператор А. Исмаилов томонидан саҳифаланди.

Газетанинг полиграфик жиҳатдан сифатли чоп этилишига "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси масъул. Босмахона телефони: 71-233-11-07.

МАНЗИЛИМИЗ:
100000,
Тошкент шаҳри,
Матбуотчилар кўчаси, 32-уй.

Навбатчи муҳаррир — Д. Улуғмуродов.
Мусаҳҳиҳ — Ш. Машраббоев.

"Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси босмахонаси. Корхона манзили: Буюк Турон кўчаси, 41. ЎзА якуни — 22.25 Топширилди — 00.50 1 2 3 4 5 6